

32.

K-22

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» kafedrasi

Bakalavriat ijtimoiy-gumanitar yo`nalishlari
2-kurs talabalari uchun

«Ochiq axborot tizimlarida axborot-
psixologik xavfsizlik» fani bo`yicha

MA'RUZALAR MATNI




NAMANGAN-2008 yil

So'z boshi

Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil tazyiqlar mavjud bo'lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha faoliyatui kuchaytirdilar. Shuning uchun XXI-asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytmayaptilar. Bu ma'noda Akinavada 2000 yil 22 iyulda jahonning rivojlangan 8 mamlakati tomonidan imzolangan global axborot jamiyatini xartiyasini eslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur xartiya yangi asrdagi jahon hujumiyati rivojlanishining muhim omili bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanishidan yaqqol dalolat beradi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta'minlashga sanoat xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan sur'at va ko'lamga erishildi.

Kishilar o'rtaida xabar etkazishni ta'minlashga qobil hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtaida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama o'yin rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar va ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Mazkur ma'ruzalar mantini tayyorlashda Q.T.Irnazarov, M.M.Husanov, A.Ochildev, A. Begmatov, F.Mominov, N.Jo'raev, M.Bekmurodov, V.Karimova, Sh.Nurullaeva larning ma'lumotlaridan foydalanildi. Tuzuvehilar yuqoridagi mutaxassislarga ma'ruza matnlari tayyorlashdagi amaliy yordamlari uchun samimiy minuqdorchilik izhor etadilar.

190-19



I-mavzu: Kursning premeti va vazifasi. Fanning asosiy tushunchalari va xususiyatlari.

- 1 Kursning maqsad va vazifasi.
- 2 Asosiy tushuncha va terminlar.
- 3 Kursning tuzilishi.

Hozirgi vaqtida deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil tazyiqlar mavjud bo`lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo`yicha faoliyatni kuchaytirdilar. Shuning uchun XXI asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytmayaptilar. Bu ma`noda Akinavada 2000 yil 22 iyulda jahonning rivojlangan 8 mamlakati tomonidan imzolangan global axborot jamiyati xartiyasini eslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur xartiya yangi asrdagi jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili bo`lib axborot - kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanishidan yaqqol dalolat beradi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. YAngi yuqori texnologiyalar jamiyat a`zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta`minlashga va xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart - sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko`z ko`rib qulqoq eshitmagan sur`at va ko`lamga erishildi.

Kishilar o`rtasida xabar etkazishni ta`minlashga qobil hisoblash texnikasi, axboriy aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o`rtasida mutanosiblik mayjud bo`lgan jamiyatgina har tomonlama uyg`un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o`zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo`lgan talab hamda ehtiyojini to`liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o`tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning o`lchami mazkur sohalarda to`plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur`ati va o`zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. YA`ni, u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobjiy ham salbiy kuch sifatida namoyon bo`lishi mumkin. Shu ma`noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo`lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo`ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o`z shaxsiy manfaatlariiga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g`oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko`ra ko`pgina davlatlarda glaballashuvga qarshi harakatlar yuziga kelmoqda, bular yagona jahon uyg`unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o`rinda shuni alohida ta`kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o`zi tobora global xarakat tusini olmoqda. Zamonomizning o`ziga xos jihatlaridan biri sifatida har qanday mahalliy

hodisa yoki voqeа zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqeaga aylanmoqda. Masalan, 2000 yil 11 sentyabrda Nyu Yorda yuz bergan voqeа, Livan tuprog`idagi harbiy harakatlar, Frantsiyadagi yoshlarning chiqishlari, u yoki bu mamlakatdagi saylovlar, avia halokat, tabiiy ofat, terrorchilik harakati va boshqa shunga o`xshash voqeа va hodisalar buning yorqin dalili bo`ladi.

Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta`sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan, alohida olingen bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlardan darak berishi bilangina emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bularni o`z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ta`sir etadi. Shu sababli davlatlar, hukumatlar o`rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqtı-vaqtı bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo`lavermaydi.

Bular barchasi axborot jarayonlarining globallashuvi bilan bog`liq muammolar dolzarbligini yana bir karra ta`kidlaydi. Ammo mazkur muammolar tufayli axborot ishlab-chiqarish va tarqatish imkoniyatlarining tengsizligi paydo bo`ladi. Bu ob`ektiv vaziyatni shunday deb qabul qilmoq kerak. Mamlakatlar bu boradigi o`z ustunliklarini shaxsiy manfaatlarida foydalanishlari boshqa gap. Mana shunday vaqtida munosatlarda keskinlik yuzaga keladi, u ko`p hollarda axboriy kurashga yoki boshqacha qilib aytganda psixologik urushga aylanib ketadi.

Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta`minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog`liqdir.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O`zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta`kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarni tadrijiy rivojlanishini ta`minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko`rinadi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an`analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, mustaqil dunyo qarashga ega ma`lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko`rsata oladilar. Bu birinchidan. Ikkinchidan, mana shunday kishilargina tegishli muhit yaratishlari va milliy g`oyalarning darg`alari hisoblanadi.

Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o`rganishda axborotning shakli va mohiyati; axborot xavfsizligini ta`minlash; ochiq axborot tizimlarining o`ziga xosligi; shaxs, jamiyat va davlat axboriy- psixologik xavfsizligini ta`minlash manbalari va turlari; axborot sohasidagi milliy

xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati va tamoyillari; OAV va axboriy qarama-qarshilik; axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy yo'nalish va usullar; ochiq axborot tizimlarda shaxsning o'z-o'zini himoya qilishi; jamoatchilik fikri va jamiyat axboriy-psixologik xavfsizligi; O'zbekiston OAV lari va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularni chuqurroq o'rghanish talab etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan mavzularni o'rghanishda axborot, axboriy xavfsizlik, milliy manfaatlar, axborot sohasidagi milliy manfaatlarga bo'lgan xavf, manbalari, jamoatchilik fikri, ochiq axborot tizimlari, globalashuv, axboriy qarama-qarshilik, axboriy-psixologik kurash, OAV lari, onglilik, idroklash, aks ettrish manikulyattsiya qilish, psixologik qo'poruvchilik, ijtimoiy targ'ibot, jamoatchilik ongi, insonni xufiyona boshqarish va boshqalarga alohida e'tibor qaratish joiz.

Psixologiya, sotsialogiya, falsafa, O'AV nazariyalaridan olingan bu tushuncha va terminlar fanni chuqurroq tushunishga, uning asosiy mazmunini, usullari va yo'sinlarini, ya'ni ochiq axborot tizimlarida foydalanayotgan usullarni idrok etishga, demak, ijobiy g'oyalarni salbiy g'oyalardan farqlay olishga ko'maklashadi. Ma'lumki, har qanday dalil, hodisa yoki voqeя turlicha talqin etilishi mumkin, shunga bog'liq tarzda auditoriya tomonidan qabul etilishi ham mumkin. Shuning uchun avval boshidanoq, tushunchaviy apparatni belgilab olish, uni sharhlash lozim, shundan kelib chiqqan holda biror hodisa yoki voqeani biz qanday idrok etishimiz va talqin qilishimizga e'tibor berishimiz darkor.

Jamoatchilik fikri, bu hozirgi payt uchun dolzarb bo'lgan turmush muammolariga kishilarning munosabatini ifoda etuvchi ijtimoiy ong shaklidir. Aslida tezkor bo'lgan ongning bu shakli yuqori darajada jamiyat turli institutlari tomonidan ko'rsatilayotgan ta'sir ostidadir, demak, bu manikulyativ ta'sirga ham chalingandir.

Jamoatchilik fikrini manikulyattsiya qilish (ya'ni, chalg'itish) muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Bunda chalg'itish (manikulyattsiya) qilish tushunchasining nisbiyligi haqida aytib o'tish kerak, chunki istalgan tomon jamoatchilik fikriga har qanday ta'siri chalg'itish (manikulyattsiya) deya baholashi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi jamiyatda yagona bo'lgan ijtimoiy fikr ehtimoldan yiroqdir. Demokratianing tamoyillaridan biri ham mana shudir.

Kursning predmeti bo'lib, ochiq axborot tizimlaridagi axborotlarni boholashga psixologik immunitetni hosil qilish va ongli ravishda oqilonqa yondashishni tarbiyalash maqsadida ochiq axborot tizimlaridagi dolzarb axboriy psixologik xavfsizlik muammolarini idrok etish xizmat qiladi. Mazkur muammoning muhimligini yana yuqori texnologik kommunikatsiya vositalari amal qilayotgan sharoitlarda ayrim kishilar, jamiyat davlat, jahon hamjamiyat xulq-atvori va harakatini hatto birgina axborot kanali yordamida boshqarishni amalga oshirishning ulkan imkoniyati paydo bo'lganligi bilan izohlash mumkin. To'fon, asteroidlar yaqinlashib kelayotgani haqidagi birgina

xabarni yodga olaylik, bular sayyoramizga qanday zarar etkazishi, hatto undagi hayotni barbos qilishlari mumkin. Lekin bunday hodisalar tez-tez yuz berib turmaydi. Bularidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish mumkin emas. Bir yoki bir guruh mamlakatlarning milliy manfaatlari haqida so'z borsa, bu boshqa gap. Bunday holatda manfaatdor mamlakat zarur natijaga ega bo'lish uchun intilib, ham mamlakat ichkarisida ham xalqaro maydonda axboriy tadbir o'tkazadi. Bugungi kunga kelib, iqtisodiy, siyosiy va boshqa maqsadlarga erishish uchun harbiy ustunlik yoki kuchning o'zi etarli emas. Raqib tomonga axboriy - psixologik tazyiq o'tkazish ham zarur bo'ladi. Iroqqa qarshi birinchi harbiy harakatlar vaqtida ham, ikkinchisida ham shunday bo'lgan edi. Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng ayrim davlatlardagi (rangli inqiloblar) vaqtida ham shunday holat kuzatilgan edi. Afsuski, bu hol bizning zamonamizda xalqaro munosabatlarning ko'rinishlaridan biriga aylanmoqda. Shuning uchun ruhiy tazyiq o'tkazishni minimum darajaga keltirish uchun hozirda biror jamiyatga ta'sir o'tkazish maqsadida foydalilanayotgan shakl, usul va yo'sinlarni o'rganish shunday ta'sirga uchrashi mumkin bo'lgan ayrim davlatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun ham niroyatda muhimdir. Auditoriya u yoki bu axborotdan qanday maqsad ko'zlangani, kimning manfaatiga xizmat qilishini aniq belgilashni o'rganish talab etiladi.

Ijtimoiy ong ayrim ijtimoiy guruhlar, butun jamiyat turmushi va ongingin namoyon bo'lish shaklidir. Ijtimoiy ongning mavjud bo'lish shakllari bo'lib, siyosiy g'oyalar, huquq, falsafa, axloq, din, fan, estetika va b. hisoblanadi. Afsuski, ma'lumotnoma va maxsus adabiyotlarda ijtimoiy ongga an'alarimi, odatlarmi, turli marosimlarmi, turmush tarzimi, alohida-alohida yoki birgalikda bu qadriyatlar barchasi birgalikda ko'proq ta'sir o'tkazishi haqida lom-mim deyilmaydi. Vaholanki, bular oqibat natijada har bir kishining, etnos, elat va millatning o'zligi (mentaliteti) ni belgilaydi.

Axborot moddiy dunyoning organizmlar yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish uchun foydalilaniladigan moddiy dunyo ob'ektlarining aksidir. U ma'lumotlar, xabarlar shaklida namoyon bo'ladi. Ma'lumotlar moddiy dunyo ob'ektlari organizatsiyasi aksi natijasida hosil bo'ladi. Xabarlar esa boshqa organizmlarga xabar etkazish uchun yuzaga keladi. Ochiq axborot tizimlarida «xabar» termini kishilar, ijtimoiy guruhlar, umuman jamiyat qurshab turgan olamda mo'ljal topa bilishi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega xabar ma'no ifodasini beradi. Shuningdek, muayyan jamiyat ijtimoiy tabiatini belgilab beradigan ma'naviy qadriyatlarni qaror topdirish uchun xizmat qiladi. Milliy manfaatlar, bu - davlat tomonidan tan olingan hamda shaxs, jamiyat va davlat ijtimoiy manfaatlarining huquqiy jihatdan ta'minlangan mutanosiblashgan majmuidir. Bularni amalga oshirish muayyan tarixiy sharoitda milliatning mavjudligi, xavfsizligi va kafolati hisoblanadi.

O'zini namoyon eta bilishlik, jamiyat ishlarida qatnashishlik, etnik o'ziga xoslikni saqlash shaxsiy ehtiyojlarning namoyon bo'lishi - shaxsning ijtimoiy manfaatlaridir.

Jamiyat manfaatlari jamiyat rivojanishidagi kuchli ziddiyatlarni hal etishda, milliy o'ziga xoslikni anglashdu namoyon bo'ladigan jamiyat chtiyoji hisoblanadi.

Davlat mantiqti bo'lib, jamiyat ishlarini boshqarishni sifatli amalga oshirishga, milliy o'ziga xoslikni anglashga bo'lgan davlat ehtiyojining namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Milliy axboriy xavfsizlik tushunchasi har bir insonning, jamiyat va davlatning xavfsizligini o'z ichiga oladi. Har bir inson xavfsizligi deganda unga shaxs sifatida zarar etkazish mumkin emasligi tushiniladi, uning ijtimoiy faoliyati olayotgan axborotlarni idrok etishga va boshqa insonlar bilan axboriy o'zaro aloqaga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Jamiyatning axboriy xavfsizligi uning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy sohalariga, madaniy qadriyatlariga, insonlar hulq-atvorini ijtimoiy tartibga soluvchilarga, axborot infra tuzilmalariga va bular yordamiga uzatilayotgan xabarlarga zarar etkazish mumkin emasligidan iboratdir.

Davlatning axboriy xavfsizligi predmeti axborot va jamiyat axborot infra tuzilmalaridan tashkil topgan jamiyat ishlarini boshqarishni bajarish bo'yicha davlat faoliyatiga zarar etkazish mumkin emasligidan iborat.

Tazyiq bu o'zaro munosabatlar ob'eklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ob'ektlardan birining yomonlashuvi tomoniga kuch bilan o'zgartish kiritish maqsadida zarar etkazish yo'li bilan hal etish usulidir.

Milliy manfaatlarga tazyiq deganda mamlakat milliy manfaatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi milliy qadriyatlar va milliy turmush tarziga xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar majmui tushiniladi. Informatsiya sohasidagi milliy manfaatlarga, tazyiq deganda axborot sohasida va manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatda milliy manfaatlar ob'ektlariga zarar etkazish xavfini tug'diruvchi shart-sharoitlar majmui anglashiladi. YA'ni, axboriy faoliyat sohasida inson va fuqaro huquqiy mavqeini amalga oshirishga, axborotlar, axboriy infra tuzilmaga, shuningdek, mazkur ob'ektlar bilan bog'liq milliy manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga zarar etkazish tazyiqidir.

Axborot sohasida shaxs va jamiyat manfaatlari tazyiq manbalari deganda inson va fuqaroning ochiq axborotga ega bo'lishi, qonun bilan taqiqlanmagan faoliyatni amalga oshirishni foydalanishga bo'lgan huquqini cheklash tushuniladi. Bular esa shaxsiy xavfsizlik ma'naviy va aqliy rivojanishni ta'minlovchi axborotlar hisoblanadi. Bundan tashqari individual, «virtual axborot» maydonini, uning ruhiy faoliyatiga ta'sir etish texnologiyalaridan foydalanish imkonini shakllantirish hisobiga jamoatchilik ongini chalkashtirish imkonini kengaytirish shaxsning manfaatlari bo'lgan eng xavfli tajovuz hisoblanadi.

Axborot tizimini va aloqa tarmoqlarini, jamiyat hayotini ta'minlovchi o'ta muhim infra tuzilmani murakkablashtirish axborot sohasidagi jamiyat manfaatlari bo'lgan tazyiq manbalaridan biri hisoblanadi.

Bu tazyiqlar atayin yoki tushunmasdan amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari ular texnikaning va programmaviy ta'minotning xatosi yoki ishlamay qolishi tufayli, jinoyatchi to'dalar yoki unsurlar tomonidan mazkur infratuzilmaga zararli ta'sir sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Yana bir tazyiq manbai bo'lib, OAVlarning mulkdorlar uncha katta bo'Imagan guruhi qo'lida to'planishi hisoblanadi. Bular tazyiqi ostida ijtimoiy ahamiyatga molik biror hodisa soxtalashirilishi hamda jamoatchilik fikri chalg'itilishi mumkin, shuningdek, yot qadriyatlarni tiqishtirish yo'li bilan jamiyat axloqiy zaminiga putur etkazish mumkin.

«Axboriy quro» ni tarqatish va bu sohada «qurollanish poygasi» ni kuchaytirish ham axborot sohasidagi davlat manfaatlari uchun xavf manbai hisoblanadi. Bunday xavflar davlat siri hisoblangan, boshqa maxfiy axborotlardan iborat bo'lgan ma'lumotlarga qonunga xilof tarzda ega bo'lishdan iboratdir. Ma'lumki, bularning oshkor bo'lishi shubhasiz, davlat manfaatlariiga zarar etkazadi.

Ochiq axborot tizimlari asosan: axborot agentliklari, gazetalar, jurnallar, jurnal tarzdagi nashrlar, boshqa nashr mahsulotlar, radio, televidenie, audio va vediomahsulotlardir. Internet, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, davlat, jamoatchilik va boshqa tashkilotlar va muassasalar, reklama agentliklari bo'yicha tuzilmalar ham shular jumlasidandir.

OAV lari bo'lib, vaqtli matbuot, axborot tarqatishning audio, video vositalari, axborot agentliklari, internet- jurnalistika hisoblanadi. OAV ochiq axborot tizimining muhim asosiy qismini tashkil etadi.

Axboriy qarama-qarshilik, bu- auditoriyaga atrof muhitdagi biror hodisaga nisbatan munosabatda bo'lishga o'z qarashlari, fikrini tiqishtirish hamda qarshi tomon g'oyasi va nuqtai-nazarini inkor etish roli bilan ta'sir etishga intilishdir.

Axboriy - psixologik kurash, bu - boshqa mamlakat yoki mamlakatlar guruhida mayjud ijtimoiy tizimni bo'shashtirish, jamiyat axloqini izdan chiqarish, rivojlanish milliy programmasiga putur etkazish, shuningdek o'z qadriyatlari va turmush-tarzini to'g'ridan- to'g'ri eksport qilish maqsadida axborot xizmati va qo'poruvchilik bilan shug'ullanuvchi xizmatlarni o'zaro hamkorligidir.

Qo'yilgan topshiriq - individning e'tibor qaratishiga, munosabat bildirishiga, jumladan kelayotgan axborotga ham psixologik jihatdan tayyor ekanligi hamdir. Psixologik jihatdan topshiriq u yoki bu qarorga kelish yo'lida shakllanadi. Bunda konkret holat bilan unga bog'liq bo'lgan turli faktorlar hisobga olinadi.

Omma ongiga u yoki bu qadriyatlarni psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatishida axboriy vositalardan foydalanish - axborot manipulyatsiyasi, axborotni ishlatib maqsadga erishishdir. Ko'pchilik bunda o'zi anglamagan holda, hatto o'zlarining manfaatlariiga zid bo'lsa ham ta'sir qilish manbaiga, ob'ektiga aylanganlarini bilmaydilar.

Tayanch iboralar:

1. Axborot texnologiyasi-mohiyati va mazmuni.
2. Axborot xavfsizligini -mazmuni va mohiyati.
3. Ruhiy tazyiq o'tkazish-shakl, usul va yo'sinlar.
4. Axboriy qarama-qarshilik shakl va ko'rinishlari.

Nazorat savollari:

1. Axborotlar mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga qay darajada ta'sir etadi?
2. Jamoatchilik fikri nima?
3. Ruhiy tazyiq o'tkazishning shakllari nimalardan iborat?
4. Milliy manfaatlari nima?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mascura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild,
3. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag asida: xavfsizlikka tahdild, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». -Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil.
4. Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida»,, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil
5. Karimov I.A. «Jamiyatimiz masfurasi-xalqni-xalq, millatni- millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-son
6. Karimov I.A. «Olloq qalbimizda, yuragimizda». -Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.
7. Karimov I.A. «Milliy istiqlol masfurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000 yil.
8. Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari'
9. «Iqtisodiy va informatsion xavfsizlik zamonaviy muammolarisi» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to'plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma'sul M.M.Baxadirov. T..JIDU,2006.-137b.
10. YArochkin.V.I. Informationnaya bezopasnost'. Uchebnik dlya studentov VUZov. M.: Akademicheskiy proekt Fond «Mir»,2003.-640s.
11. Informatsiya. Diplomatiya. Psixologiya. M.: «Izvestiya», 2002.616s

12. V.I.Xozikov. *Informatsionnoe orujie*. Sankt-Petburg. Izdatel'skiy Dom «Neva», Moskva. Izdatel'stvo «OLMA-PRESS Obrazovanie», 2003.
13. Lopatin V.N. *Informatsionnaya bezopastnost' Rossii: CHelovek. Obshestvo. Gosudarstvo* Sankt-Petburg. Izd. MVD Rossii i Sankt-Petburgskogo universiteta (Fond «Universitet»).2000.
14. Natsional'naya bezopastnost': *Informatsionnaya sostavlyayushaya*. V.V.Eremenko, Yu.I.Kovalenko i dr.; pod red. V.V.Eremenko.-M.: MOSU, 2000.-331s.

O`zbekiston saytlari:

WWW. press-servise. uz -press-slujbu Prezidenta Respublikи Uzbekistana;

WWW. Gov uz - Intkrnet-portal kabineta ministrov Respublikи Uzbekistana;

WWW.izes uz - veb-saytInstituta strategicheskix i mejregional'nix issledovaniy pri Prezidenta Respublikи Uzbekisten;

WWW. Edu uz - veb-saytInstitutaizucheniya grajdaeskogo obshestva;

WWW. Ziyonet uz - Internet-skt «Ziyonet»;

WWW. myp uz - Natsional'niy molodejnyi portal;

2- mavzu: Axborot va jamiyat taraqqiyoti

Reja:

1. Informatsion jarayonlar: asosiy tushunchalar talqini.
- 2. Axborotlashuv va jamiyat rivoji.**
3. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish-dolzarb vazifa.

Axborot (lotincha «informatio»-tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma'lumot; XX asming o'rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o'rtaсидagi ma'lumot hamda hayvonlar va o'simliklardagi signal almashinushi, hujayradan hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglatla boshlagan.

Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumot (ma'lumotlar majmui)ni anglatadi.

Axborotlashtirish-axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish

maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui.

Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishlash, toplash, saqlash va tarqatish jarayoni.

Axborot tizimi (informatsion sistema)-informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingen hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmui.

Axborot resurslari-muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborot- ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o'ttasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o'z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o'ttasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

To'laligi, asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda OAV muhim rol' o'ynaydi.

Axborot madaniyati texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarga ega.

Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash, saqlash va etkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilonan foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot madaniyati insonning muayyan ma'naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarni o'zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Axborot iste'moli madaniyati (O'zMU tadqiqotchisi U.Qo'shaev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tushuncha) axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o'zida ifoda etadi.

Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyatni rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilonan foydalanishga asoslangan sifatiy holatini tavsiflovchi tushuncha.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilarini ijtimoiy rivojlanishni «bosqichlar almashinuviga» nuqtai nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchisi - «axborot sektori» yuzaga kelishi bilan bog'laydilar.

Ularning fikriga ko'ra, industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'mini axborot va bilinga bo'shatib beradi.

2. Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb sotsiologlari fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyat texnika sohasida-ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta'lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi; iqtisodiy hayotda-axborotning tovarga aylanishi; ijtimoiy hayotda-axborot turmush, hayot darajasi o'zgarishining asosiy omiliga aylanishi; siyosiy sohada-keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo'l ochilishi; madanivat sohasida-axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

-uda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan «yuk»ning keskin qisqarishiga olib keladi;

-ish kunining qisqarishi odamlarning uyda ko'proq bo'lishiga va oilaviy muhitning barqaror bo'lishiga zamin yaratadi;

-keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro'li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo'layotgan madaniyat yutuqlarini istifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida nisbatan osuda va tinch bo'lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u erda doimiy qolish uchun zamin yaratadi;

-masofaviy ta'lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanishi barobarida, aholining keng qatlamlari uchun hatto eng elitar oliy o'quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma'lumotlilik ko'p darajada insонning hohish-irodasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi.

«Yumshoq erotika»dan tortib «ochiq pornografiya»gacha bo'lgan hodisalar bilan bog'liq muammolar ana shular jumlasidandir. Bunday holatlarning oldini to'la-to'kis olib bo'lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishlarsiz ishlashi uning muhim sifatigi belgisi hisoblanadi va bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, yuqoridaq kabi «muammolar» yo'liga qanchalik to'siq qo'yilmasin doimo ularni «aylanib» o'tish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Yana bir muammo mualliflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi bilan bog'liq Shunday ekan, axborot tarmog'ida ko'pchilik ko'ra olmaydigan hududlar yuzaga kelishi tabiiy. Bugungi kunda kompaniyalar o'z axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning oldini olish uchun katta mablag'lar sarflayotgani ham shundan.

Shu bilan birga muayyan axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e'lon qilishgacha bo'lgan ko'rimishlarda namoyon bo'ladigan suiste molliklar ham kelib chiqishi mumkin.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtaqidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televideenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo'l topish sohasida keskin bo'linish, tabaqalashuv sodir bo'lmoqda.

Yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faoliyat ko'rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

3. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta'sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi, takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi deyish mumkin.

O'z davrida og'zaki nutqning paydo bo'lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo'lsa, yozma nutq rivoji bu borada o'ziga xos yangi bosqichni boshlab bergan edi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashuv sharoitida esa axborot makonida tub sifatiy holat kechmoqda. Endilikda, axborot uzatish nafaqat xilma-xil (radio, televideenie, matbuot, telefon, faks, pochta, Internet va b.) shakllari, balki, o'ta tezkorligi bilan ham jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlardagidan farq qiladi. Bunday sharoitda, axborot iste'moli jarayonida ham yangi tendentsiyalar kuzatilmoqda.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikrning paydo bo'lishiga ham axborotning yuqoridagi xususiyatlari sabab bo'lgan.

Ijtimoiy makon - bu, ayni vaqtida axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, Internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

Axborot iste'moli ijtimoiy, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste'molining xizmatlar iste'molining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday

xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bu jarayonda, iste'mol qilinayotgan xizmatning talab-taklif xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste'mol darajasi yuqori bo'lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste'moli jarayoniga ham xosdir. Biroq, ma'naviy ne'mat bo'lgan axborotni iste'mol qilish o'ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste'mol qilinadi-ki, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biron shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, G'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar, Sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar, vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin.

Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'i nazar, qabul qilish, tushinish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Axborot iste'moli madaniyati globalashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, Internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yo'qotishi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilaridan tubdan farq qiladi.

Shubhasiz, zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish - davr talabi. Biroq, bugungi kunda, shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatning o'zi haqida axborotlarni tarqatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ikki asosiy jihat mavjud. Birinchidan, masalan, Internet tarmog'i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda, ulardan mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'mini mustahkamlashda keng foydalanish zarur. Chunki, jahonga tanilish uchun nafaqat real dunyoda, balki, axborot dunyosi (virtual olam)da ham harakatlar olib borish zarur. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «bu borada ishni. to'g'ri tashkil etish uchun Internet tizimidan samarali va oqilona foydalanish, uni o'zimizning ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak...bizning zaif tomonimiz shundaki, Internetda O'zbekiston bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam. Nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas. Milliy qadriyatlarimiz, tarix va merosimiz, bugungi fan, san'at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini Internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan» (Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild.-T., O'zbekiston. 2005. – B.

301-302). Ikkinchisi muhim jihat shundaki, yurtimiz hayotiga doir ayrim noxolis, tor doiradagi manfaatlardan kelib chiqib turqatilayotgan ma'lumotlarga javoban axborotlarni global miyosda targ'ib-tashviq etish tashqi axborot xurujlariga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini bajaradi. Bu esa, turli geosiyosiy manfaatlardan doirasidagi axborot xurujlari ta'sirini kamaytirish va milliy axborot makoni xavfsizligi ta'minlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Buning uchun, kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagina ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. eng muhimi esa, axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat g'arazli manfaatlardan doirasidagi geoaxborotlar ta'siriga tushib qolmaydi. Albatta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi.

Axborot iste'moli madaniyatni ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi. Kommunikativ, reguliyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funktsiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funktsiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, «biz ba'zan G'arb madaniyatni to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, Internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat» (Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild.-T., O'zbekiston. 2005. – B. 304).

Hamma gap, mazkur muhim resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida.

Boshqacha aytganda, tarmoqdan illat qidirish bilan ovvora bo'lmasdan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miyosida keng yoyish yo'lida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, Internet virtual, ammo, ob'ektiv hodisadir. Uning hayotimizga kirib kelishini nazorat qilib bo'lmaydi. Odamlarimizni Internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o'rgatish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilishimiz to'g'ri bo'ladi. Zero, kishilarda axborot iste'moli madaniyatni shakllangan bo'lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni ... baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda bunday paytida, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi... madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tanlanish sodir bo'ladi,

madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi ayniylik, o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi (Shermuhamedov S., Ochildev A. Madaniyat va tsivilizatsiya. – Farg'ona, 2000. – B. 37).

Shuning uchun, hozirgi davrda aholimiz, ayniqsa yoshlarimizning axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va texnologiyasini mukammal darajada o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, mamlakatimizda Internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Zero, jamiyatimiz hayotining turli sohalari to'g'risida axborot beruvchi ob'ektiv, jozibador ma'lumotlarning Internet sahifalaridan keng o'rinn egallashi, O'zbekistonning global axborot makonidagi o'rning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar:

- Axborot tizimi** mazmun va mohiyati.
- Axborot resurslari**-mohiyati, tarkibiy tuzilishi.
- Axborot madaniyati** - texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlari.
- Internet tizimi - O'zbekistonda internet tizimining kirib kelishi va ahamiyati.

Nazorat savollari:

- Axborot so'zi qaysi tildan olingan?
- Informatsion jarayonlar deganda nimalarni tushunasiz?
- Axborot iste'moli madaniyat nima?
- Axborotlashgan jamiyat deganda nimalarni tushunasiz?

Adabiyotlar:

- Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild.-T.: O'zbekiston. 2005.
- Kontsepsiya virtual'nox mirov i nauchnoe poznanie.- SPb.: RXGI, 2000.
- Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade. -M.: Progress, 1986.
- Sibert F.S., Piterson T., Shramm U. Cheto're teorii presso'. -M.: 1998.
- Xarris Dj. Psixologiya massovo'x.kommunikatsiy. -M.: 2001.
- Chazov A.V. TSennosti kak faktor formirovaniya politicheskix predpochteniy. Politicheskiy analiz.-SPb.: 2000.
- Shermuhamedov S., Ochildev A. Madaniyat va tsivilizatsiya. - Farg'ona, 2000.-B. 37.

3-mavzu: Axborot sohasining globallashuvi.

Reja:



1. Globallashuv va uning dunyo mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri.
2. Globallashuv sharoitida milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni saqlash vositalari.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtafigi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la chegaralaniq olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy bo'ladi.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'naliшини tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanimish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarga ko'z yugurtirish bu sohadagi ishlar endi boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuvning milliy ma'naviyatga o'tkazadigan ta'siri haqida yozilgan jiddiyroq risola va yitik tadqiqotlar u yoqda tursin kichikroq maqolalarni topish ham mushkul. Ilmiy nashrlar va jurnallar, davriy matbuotda mazkur mavzu bo'yicha biz topa olgan ishlarning miqdori qo'llarimiz panjasidan ham oz. Har qanday siyosat, jumladan iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga etarli ko'mak bera olmayotganini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz jahon maydonida olib borayotgan siyosat ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo'naliшлиари, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilishimiz, shu orqali siyosatchilarimizning to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratishimiz lozim.

Globallashuvga qisqa ta'rif bermoqchi bo'lsak, uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtafigi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishi deyish mumkin.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani bizningcha, frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergen ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- Globallashuv - jahoning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- Globallashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'chovlarining har uchlasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodi siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobjiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Globallashuvning o'zi murakkab jarayon ekani, uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonga bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globallashuv tarafdonlari globalistlar, deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqdalar. Bu erda ular tu'ni anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turdilar.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va kuchaydi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Evropa taraqqiyoti va tiklanish banki ulkan tashkilotlarning vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Globallashuvning tezlashi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchayib ketdi. Ular globallashuvning faqat salbiy oqibatlariga emas, umuman uning o'ziga qarshi chiqqa boshladilar. Masalan, Rossiyalik faylasuf va yozuvchi A. Zinov'ev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda so'zlagan nutqida shunday deydi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdag'i jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!», - degan edi.

«Aksilglobalizm vektorlari» anjumanidagi yana bir ma'ruzachi A. Parshev esa globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: «Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarini o'zlashtirishdan iborat»².

Tahlil shuni ko'rsatadiki, globalizm tarafdarlari ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatga ta'siri va ma'naviy globallashuv masalalari sotsiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini etarli darajada topganicha yo'q.

Bir ma'ruza doirasida globalashuvning faqatgina eng asosiy jihatlari va yo'nalishlarini ham qamrab olish qiyin. Shuning uchun mazkur ma'ruzada globalashuv milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan va o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'sir haqida fikr yuritamiz.

Ma'naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonodon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va maskuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralar ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan maskuravly ta'sirga qarshi himoya choralar ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozinu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qliki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ihotalangan bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamona ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa, tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilgandan guvohlik beradi.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sabablari ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhim shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib ularning ijobiliy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarildi. Bu fikring tasdig'i ni ma'naviyatning tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod, san'at misolida ham ko'rish mumkin. Buni faqat Vatanimiz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy va Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasini, tabiiy fanlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganan ekan, qadimgi manbalarni o'rganish uchun qadimgi hind tili-sankritni bilish lozimligini anglaydi. U sanskritni o'rganishga kirishadi va qisqa fursatda uni chuqur o'zlashtiradi. Endi qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana boshlaydi. U shuningdek, yunon va Rim madaniyati va fanini o'rganish uchun yunon va lotin tillarini o'zlashtirgan edi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan edi. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. eng muhim jihat shundaki, o'sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari

ma`naviyatini o`rganibgina qolmay, ularni chuqur tahlil etishdi, tegishli joylarini rivojlantirib olamshumul kashfiyotlar qilishdi.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma`naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o`rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma`naviyat cho`qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Hozirgi kunda ana shu ijodiy yondashuv etishmayotganday. Bizga ta`sir o`tkazayotgan yoki ta`sir o`tkazmoqchi bo`layotgan g`oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ana shunday tahlilni o`tkazish uchun esa ba`zan erinchoqligimiz, ba`zan uquvsizligimiz xalaqit bermoqda. Buning oqibatida qabul qilish kerak bo`lgan g`oyalarni rad etish va rad etish lozim bo`lgan g`oyalarni qabul qilish hollari ham uchrab turibdi.

Shunday g`oyalarni borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib, kirib keladi. Shunday g`oyalarni ham borki, ular o`g`ri kabi kechasi tuynukdan tushishadi.

Eshik qoqib keladigan g`oyalarni milliy ma`naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki, milliy ma`naviyatlar o`zaro ta`sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma`naviyati rivojiga nazar tashlansa uning boshqa xalqlar udum va an`analarini o`zlashtirish va moslashtirish orqali rivojlanganini ko`rish mumkin.

O`zbek milliy ma`naviyati ham uzoq va yaqindagi qo`shnilarning ilg`or an`analarini o`zlashtirish natijasida rivojlanib bordi. Ma`naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o`zbek madaniyati va ma`naviyati va uning asr oxiridagi holati o`rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san`at, fan, hatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak sohalarida ham kuzatish mumkin.

XX asr boshida o`zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi, demak milliy teatr san`ati to`g`risida so`z ham yuritish mumkin emas edi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo`ja Behbudiy, Fitrat singari ma`rifatparvarlarning sa`y-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san`ati vujudga keldi. O`sha paytlarda teatr san`atini o`zbek millati uchun yot, begona g`oya deb e`lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatni rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralannagan edi. San`atning bu turlarini O`zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazax qilish, masxaralash, hatto sazoyi qilish o`zlarini milliy ma`naviyat himoyachilar, deyuvchilar tomonidan amalga oshirilgan edi. Hamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san`ati milliy ruhiyatimiz va ma`naviyatimizga yot, deyuvchilarning o`zlarini milliy ma`naviyat rivojiga g`ov ekanini ko`rsatdi. Hozirgi kunda har million kishiga hisoblaganda teatrlar soni bo`yicha O`zbekiston dunyodagi eng ilg`or o`rinlardan birini egallaydi va teatr milliy ma`naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning tadrijini kuzatsak, g'aroyib hodisalarning guvohi bo'lamiz. O'tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak, paxtalik chopon, paxtalik shim va etikdan iborat edi. Yozgi kiyim esa do'ppi, ko'yak yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kafshdan iborat edi.

XX asr boshlarida Ovrupocha kiyim kiyish, galstuk taqish yoki kostyum va shlyapa kiyish u yoqda tursin, milliy kiyimga ozroq bo'lsa ham o'zgarish kiritishga urinish din peshvolari va milliy o'zlik «himoyachi» lari tomonidan milliy ma'naviyatga tahdid sifatida baholanar edi. Masalan, an'anaviy tarzda tugma qadalmaydigan yaktakka tugma qardash 1918 yil fevral oyida Buxoro muftisiyoti tomonidan kofirlarning ishi deb e'lon qilindi. O'sha paytlarda endigina rivojlanib kelayotgan vaqtli matbuot, ya'ni gazeta va jurnallarni o'qish ham kufr deb e'lon qilindi. XX asr oxiriga kelib esa milliy o'zlikka tahdid, deb e'lon qilingan o'sha gazeta va jurnallar milliy o'zlikni himoya qiluvchi vositalardan biriga aylandi. erkaklarning kiyimlari ham bir asr davomida mutlaqo o'zgarib ketdi.

Ayollarning kiyimlari ham bir asr davomida jiddiy o'zgarishlarga uchradi. U paytda ayollar libosi keng va uzun ko'yak, kamzul va kafsh-maxsidan iborat edi. An'anaga ko'ra, ayollar ko'yagi badanning past-baland joylarini bilintirmaydigan darajada keng bo'lishi, englari esa bilaklarni to'la yopib turishi lozim edi. Ayollarning shunday kiyimlari 30-yillargacha moda bo'lib keldi. O'sha paytlarda biror kishi yana 30-40-yillardan keyin o'zbek ayollar tor ko'yak va yubka, shim kiyib yurishadi, desa boshqalar uni aqldan ozganga chiqarib qo'yishi hech gap emas edi. Oradan 40-50 yil o'tar-o'tmas ayollar shunchaki tor ko'yak va shim emas, mini yubka, juda tor shimplar kiya boshlashdi. endi kiyim ularning badanidagi past-baland joylarni yashirishga emas, bo'rtib turgan joylarni yana ham bo'rttiribroq ko'rsatishga xizmat qila boshladi. Asr boshida ayollar badanining 5-6 foiz qismi ochiq yurgan bo'lsa, asr oxiriga kelib yoz paytlarida ayollar badanining 50-60 foiz qismi ochiq yuradigan bo'ldi. XX asrning so'nggi choragida ayollar asr boshidagi ayollar liboslarini kinofil'm va fotosuratlarda ko'rib ajablanishadi, xolos. Bularning bari hozirgi til bilan aytganda, globallashuv, aniqrog'i ma'naviyatdagi globallashuv natijasi edi.

Ko'rib o'tgan misollarimizda erkak va ayollar liboslaridagi o'zgarishlar yuz bergan har bir bosqichda avvalgi borsqich liboslarini himoya qiluvchi, yangiliklarni esa G'arbdañ kelayotgan ma'naviy tahdid, deb baholovchilar ham anchagina bo'lgan. Mana shu misollar globallashuv jarayonida chetdan kirib kelayotgan hodisalarning qaysi biri ma'naviyatga tahdidu, qaysi biri hayotbaxsh ekanini aniqlab olish qiyin ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun chetdan kelayotgan har qanday g'oyani yet va vayronkor, deb e'lon qilishdan avval milliy manfaatlar yo'lida foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risida obdon o'yash lozim.

Sport sohasidagi atamalarni globallashuv jarayoniga ham tadbiq qiladigan bo`lsak, vayronkor g`oyalardan himoyalanishning eng samarali yo`li ularga qarshi hujumga o`tishdir. Ya`ni, biz yot g`oyalardan himoyalanish bilangina shug`ullanmay, o`z g`oyalarimiz, an`analarimiz, turmush tarzimizni dunyoga yoyish uchun harakat ham qilishimiz zarur. Hozircha biz ma`naviyat sohasida ko`proq himoya bilan bandmiz.

Tariximiz ilm-fan, din, san`at sohasida yurtimizda etishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobi jahon falsafasi rivojiga sezilarli hissa qo`sghan bo`lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug`bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi pog`onalarga ko`tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziyy, Moturidiy, Abduxoliq G`ijiduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviylar esa, hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Amir Temur va Mirzo Boburning harbiy san`ati naqadar yuksakligini butun jahon e`tirof etadi.

Sovetlar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish uyoqda tursin o`z yurtimizda qadrlash uchun ham yo`l berilmadi, ko`pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o`sha xo`rlangan qadriyatlarimizni tiklash imkoniga ega bo`ldik. Bundan tashqari, qadriyatlarimizni targ`ib qilish imkoniga ham ega bo`ldik. O`zbek milliy kurashini dunyoga yoyish bo`yicha qilingan ishlar, dunyoning ko`pchilik mamlakatlarda o`zbek kurashi federatsiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli. Shuni e`tirof etish lozimki, o`zbek kurashini dunyoga yoyish bo`yicha ishlarning tashabbuskori va tashkilotchisi Prezident I. Karimov bo`ldi. Demak, biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo`lmay, faol targ`ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

Tarixga nazar tashlasak, fan va madaniyatimiz, milliy ma`naviyatimizning gurkirab o`sishi bilan birga tushkunlik davrlari ham bo`lganini ko`ramiz. Masalan, Mirzo Boburdan keyin XX asrgacha yurtimizda dunyoni lol qoldiradigan na sarkarda, na alloma, na shoiru fuzalo etishib chiqdi. Shu davrda Boborahim Mashrab va Ogahiy singari bir necha shoirlarning etishib chiqishini esa bu davr uchun sonuniyat emas, baxtli tasodif, deb baholamoq zarur.

Tariximizning so`nggi besh yuz yilda avvalgi besh yuz yillikdagi singari yuzlab allomalar, shoirlar, lashkarboshilar etishib chiqmaganining sababi nimada, degan savolning tug`ilishi tabiiy. Buning qator sabablari bor. Ular orasida xalq ruhiyati bilan, harbiy vaziyat va iqtisodiyot bilan bog`liqlari ham mavjud. Iqtisodiy sabablardan eng muhimizi bizningcha shundaki, XV asr oxirida qilingan Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk Ipak yo`li o`z ahamiyatiyoq qota boshlagani, hududimiz savdo yo`llaridan chetda qolgani ana shunday iqtisodiy va ma`naviy tushkunlikka olib keldi. Bundan chiqarishimiz lozim bo`lgan eng muhim xulosa shundaki, globallashuv jarayonidan chetda qolganimiz bizning milliy ma`naviyatimizga, ruhiyatimizga ijobjiy

emas, salbiy ta'sir o'tkazdi. Demak, biz globallashuv jarayonida oqilona yo'l tutsak, ham iqtisodiy, ham ma'naviy ravnaqqa crishishumiz mumkin ekan. Oqilona yo'l esa globallashuvni to'la inkor qilish yoki chapak chalib kutib olishda emas, kerak bo'lganda uning yo`nalishiga moslashishda, tegishli paytda uni o'zimizga moslashtirishdu. Buning uchun esa uni muttasil kuzatib borish va tahlil qilish lozim.

Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g'oyasidan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. Shu masalada milliy istiqlol g'oyasining juda muhim funktsiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash kabi muhim funktsiyasi namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu funktsiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllantirilishi va uning o'quvchilar, talabalar, keng aholi tomonidan o'rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qildi. Aslida milliy istiqlol g'oyasining asoslari Prezident I.Karimov tomonidan istiqlolning dastlabki bosqichlaridayoq shakllantirilgan edi. Lekin, bu g'oyani yoshlar va aholi ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. Ya'ni, avvalo milliy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni tiklash, milliy g'ururni uyg'otish, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan buyon o'tgan davr ichida ma'naviyat sohasida ulkan nazariy, ma'rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o'tkazildi, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasini keng targ'ib qilish uchun zamin yaratildi.

Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda bizningcha ba'zan "birtomonlamalikka yo'l qo'yilmoqda. Bu g'oyani targ'ib qilishda ishtirok etayotgan murabbiy va o'qituvchilar, tadqiqotchilarining chiqishlarida, maqola va risolalarida ma'rifatchilik bilan cheklanish ko'zga tashlanmoqda. Holbuki, ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda bu yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu hol milliy istiqlol g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq.

Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Uning mohiyati shundaki, u odamlar ongidagi, xotirasidagi g'oyaligicha qolmay amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqlol g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagina u milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi.

Milliy istiqlol g'oyasining hayotimiz jarayoniga singib ketishimi ta'minlash uchun esa, g'oyalar amaliy harakatlarga aylanishi jarayonini sinchiklab o'rganishi kerak. Buning uchun

dastavval, g`oya bevosita amaliyotga, amaliyot dasturiga aylanishi mumkinmi? Agar mumkin bo`lsa, bu jarayon qanday yuz beradi, degan savollarga javob topish kerak.

Zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtai nazaridan bu savolga «ko`pincha aylanmaydi» deb javob berish kerak. Chunki, inson ongida, miyasida o`nlab, yuzlab va hatto minglab g`oyalalar bo`ladi. Ularning barchasi amaliyotga aylanaversa inson ham ma`nan, ham jismonan mayda bo`laklarga bo`linib, parchalanib ketishi kerak edi. Chunki, ayni bir inson ongida ayni bir paytning o`zida o`nlab turli xil, jumladan, diniy, axloqiy, siyosiy, ilmiy, badiiy va boshqa xil g`oyalalar bo`lishi tabiiy. Ular bir-birlarini to`lg`azishi va ko`pincha bir-birlariga to`la mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs bu g`oyalardan eng zarurlarini va o`zi eng to`g`ri, deb bilganlarini ajratib hayotga tadbiq qiladi. Ana shu tanlash, ya`ni g`oyaning amaliyotga o`tishidagi muhim bosqichni to`laroq va chuqurroq anglash uchun shu tanlash mezonlarini aniqlab olish zarur.

G`oyalarni saralashda shaxs foydalanadigan mezonlarning eng muhimlaridan biri, saralab olinayotgan g`oyaning shaxs manfaatlariga, ehtiyojlariga, ustavokalariga, e`tiqdiga mosligidir. Bu hodisalar, ya`ni manfaatlar, ehtiyojlar, ustavokalar, e`tiqdolari va ularning g`oyalalar bilan o`zaro aloqadorligi juda murakkab. Buning ustiga bu muammo jahon faniда ham kam o`rganilgan. Mamlakatimiz psixolog olimlari bu muammo ustida endi bosh qotira boshladilar.

Muammoning murakkabligini hisobga olib biz uning faqat bir jihatni ya`ni g`oyalalar va e`tiqod aloqadorligi to`g`risida fikr yuritmoqchimiz.

E`tiqod shaxs ongida shunday muhim o`rin tutadiki, uning hayot yo`nalishi, hayot tarzi, intilishlari mana shu e`tiqod bilan belgilanadi.

Inson ongiga yo`l topayotgan, kirib borayotgan g`oyalalar ham mana shu e`tiqod chig`irig`idan o`tkaziladi. e`tiqodga mos kelmaydigan g`oyalalar rad etiladi.

Lekin, g`oya va e`tiqod aloqadorligi faqat bir tomonlarma jarayon emas. Ularning aloqadorligi faqatgina e`tiqodning nazoratchiligi, g`oyalarni elakdan o`tkazishi bilan cheklanmaydi. Shunday holatlar ham bo`ladi, inson ongiga kirib kelayotgan g`oya undagi e`tiqodni mustahkamlaydi yoki bo`shashtiradi, ba`zan esa shu g`oyaning o`zi e`tiqodga aylanadi.

Mustaqillik qo`lga kiritilgach, mamlakatimizda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar boshlandi. Bu islohotlar jarayonida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish singari ko`plab tadbirlarni amalga oshirishga kirishildi.

Islohot ijtimoiy ruhiyat sohasida ham amalga oshirila boshladi. Bu sohadagi eng muhim vazifa odamlarni mustaqil fikrleshga o`rgatish edi. Buning uchun esa ularni sobiq sho`rolar tuzumi qoliplaridan, boqimandalik, o`zibolarchilik kayfiyatidan xalos qilish kerak edi. Bu yo`nalishda

muayyan ishlar amalga oshirildi. Biroq bu jarayon mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchasi va tamoyillari shakllanishi bilan o'zining yakunlovchi pallasiga kirdi. Chunki Prezident I. Karimov ko'p marta ta'kidlaganidek, tabiatda bo'limgani singari inson ongida ham mutluq bo'shilq bo'lmaydi. Sobiq totalitar tuzum sarqitlarini inson ongidan supurib tashlash uchun kuchli quroq kerak. Bunday quroq vazifasini faqat milliy istiqlol g'oyasi bajarishi mumkin. Chunki, hayotbaxsh g'oya bilan quronmay turib eski g'oyalar ta'siridan to'la qutilish mumkin emas. Shunisi ham borki, milliy istiqlol g'oyasidan jamiyat a'zolarining ko'pchiligi xabardor bo'lishi eski tuzum sarqitlarini supurib tashlash uchun kifoya qilmaydi. Milliy istiqlol g'oyasi e'tiqodga aylangandagina eskilik sarqitlarini supurib tashlashi mumkin.

G'oyaning e'tiqodga aylanishi uning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichdir. Shaxs e'tiqodga aylangan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun harakat qila boshlaydi. e'tiqod qanchalik kuchli bo'lsa, uni amalga oshirish uchun shaxs shunchalik ehtiros bilan harakat qiladi. Kuchli e'tiqod yo'lida shaxs bilimini, kuchini, boyliklarini, hatto hayotini ham ayamaydi. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. AQSh Prezidentlaridan biri T. Jefferson «Ozodlik shunday daraxtiki, u ba'zan odam qoni bilan sug'orib turishlarini talab qiladi», deganda e'tiqodli odamlarni, ozodlikni himoya qilish yo'lida ular o'z jonidan kechishga ham tayyor turishlarini nazarda tutgan edi. Yurtimiz tarixida ozodlik daraxtini o'z qoni bilan sug'organ yoki sug'orishga tayyor turgan qahramonlar ko'p bo'lgan. O'g'izzon, Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari shaxslar shular jumlasidadir. Ular ozodlik, yurt mustaqilligi yo'lida butun kuch-g'ayratlarini, zarur bo'lganda jonlarini ham ayamadilar.

Mustaqillikni ham ozodlikka o'xshatish mumkin. Ular - egizak. Mustaqilliksiz ozodlik bo'lmaydi va aksincha-ozodliksiz mustaqillikka erishib bo'lmaydi. Mustaqillik daraxti ham ba'zan odam qoni bilan sug'orishlarini talab qiladi. Uni himoya qilish uchun jon fido qilishga tayyor o'g'lonlar bo'limasa u qurib qoladi. Lekin, u faqat odam qoni bilan ko'kara olmaydi. Mustaqillik daraxti gullab-yashnashi uchun faqat qon emas, uning poyiga ko'proq ter to'kish kerak. Vatan o'g'il-qizlari qanchalik ko'p mehnat qilib ter to'ksalar, mustaqillik daraxti, uning ildizlari, ildizlari orasidagi o'qtomir-milliy istiqlol g'oyasi shunchalik barq urib rivojlanadi. Bayon qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda, uni yoshlar va aholi ongiga sindirishda ma'rifiy yo'l bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu yo'lni to'la inkor qilib bo'lmaydi, u ham zarur. Lekin faqat uning o'zi bilan qanoatlanilsa, nari borganda istiqlol g'oyasini izohlab, tushuntirib berish mumkin, izohlash va tushuntirish yo'li bilan esa odamlarning faqat fikriga, xotirasiga ta'sir o'tkazsa bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasini yaxshi tushunib olgan talaba yoki o'quvchi imtihonda «a'lo» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin, lekin unda bu g'oyaga e'tiqod shakllanmagan bo'lsa bu bilimni u tezda unutadi. e'tiqod shakllanishi uchun faqat bilimning o'zi kifoya qilmaydi. e'tiqod, xususan

g`oyaviy e`tiqod bilim va his-tuyg`uning farzandidir. G`oyaviy e`tiqodning otasi bilim bo`lsa, onasi his-tuyg`udir. Ulardan biri bo`lmasa g`oyaviy e`tiqod ham bo`lmaydi. Shu xususiyati bilan g`oyaviy e`tiqod e`tiqodning boshqa turlaridan, aytaylik diniy e`tiqoddan farq qiladi. Diniy e`tiqod shakllanishi uchun din arkonlari to`g`risida chuqr bilim bo`lishi shart emas. Dindorlarning ko`pchiligidagi ana shunday chuqr diniy bilim yo`q, lekin ularning talay qismidagi e`tiqod bilimdon ulamolarning e`tiqodidan kuchliroq bo`lishi mumkin. Buning sababi shundaki, diniy e`tiqod bilimni inkor qilmaydi, lekin unda ehtiros ustivortlik qiladi. Din bo`yicha juda ko`p bilimga ega bo`lgan odamning e`tiqodi sust va buning aksicha, oz bilimga ega bo`lgan odam kuchliroq e`tiqodga ega bo`lishi mumkin.

Ilmiga amal qilmagan mulladan beshak,

Afzaldir ustiga kitob ortilgan eshak,

deganda Shayx Sa`diy bilimdon, lekin e`tiqodsiz mullalarni nazarda tutgan edi.

Milliy istiqlol g`oyasini targ`ib qilishda ham bizning nazarimizda talaba va o`quvchilarga bilim berishga ko`proq harakat qilinib, e`tiqod shakllantirish vazifasi soyada qolmoqda. Xuddi shunday holatni milliy istiqlol g`oyasiga bag`ishlangan ilmiy risolalar, maqolalar, darslik va o`quv qo`llanmalaridagi ma`rifiy yondashuv bilan cheklanishda ham kuzatish mumkin. Milliy istiqlol g`oyasi fanini o`qitishda e`tiqodni shakllantirish masalalariga bag`ishlangan risola u yoqda tursin, kichikroq maqolani ham topish amri mahol. Ahvol shu taxlitda davom etsa e`tiqodsiz bilimdonlar ko`payib ketishi mumkin. Bilim bo`lgani bilan e`tiqodsiz odamlar bu bilimga amal qilmaydilar va ularning Shayx Sa`diy ta`riflagan ustiga kitob ortilgan mahlyqdan farqi kam qoladi.

Milliy istiqlol g`oyasi e`tiqodga aylangandagina mukammallik kasb etadi. Milliy istiqlol g`oyasining haqiqatan ham millat, xalq miqyosidagi g`oya ekanligini ko`rsatuvchi muhim bir mezon bor: bu uning har bir fuqaro shaxsiy etiqodiga aylanganligidadir. Bu g`oyaning ko`pchilik fuqarolar e`tiqodiga aylangandagina uning haqiqatan ham *milliy* g`oya ekanini tasdiqlaydi. Milliy istiqlol g`oyasi va alohida fuqaroning g`oyaviy e`tiqodi o`rtasidagi bog`liqlik shundaki, shaxs e`tiqodi milliy g`oya negizida shakllanadi va milliy g`oya o`z navbatida alohida shaxslar e`tiqodidan quvvat oladi, alohida shaxslar e`tiqodi sifatida mavjud bo`ladi.

Milliy istiqlol g`oyasining mohiyatiga monand tarzda uni yoshlar va aholi ongiga singdirish bo`yicha olib borilayotgan ishlar ma`rifiylik bilan cheklanmay e`tiqod shakllantirishga yo`naltirilsa ko`ngildagiday bo`lardi. Buning uchun esa e`tiqodning o`ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishidagi bosqichlar, murakkabliklar, nozikliklarni doimo yodda tutish zarur bo`ladi.

Tayanch iboralar:

1. Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon sifatida.
2. Mahatma Giandı -uning globallashuv xususidagi fikrlari.
3. Aksılglobalistlar -ular faoliyatining mazmun va mohiyati.
4. Globallashuv - ijobiy va salbiy jihatlari.

Nazorat savollari:

1. Globallashuv jarayonini dunyo mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri nimalarda deb bilasiz?
2. Globallashuv sharoitida milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni qanday vositalar yordamida saqlab qolish mumkin?
3. Axborot tizimida globallashuv deganda nimalarni tushunasiz?
4. Globallashuv jarayonida ham ma'naviy ravnaqqa erishish mumkinmi?

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild
- 3.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti,1997 yil
- 4.Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti,1998 yil
- 5.Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni- millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnalni bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-son
- 6.Karimov I.A. «Olloq qalbimizda, yuragimizda»Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.
- 7.Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000 yil.
- 8.Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari
- 9.«Iqtisodiy va informatsion xavfsizlik zamonaviy muammoları» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to'plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma'sul M.M.Baxadirov.T.JIDU,2006.-137b.
- 10.Yarochkin.V.I. *Informatsionnaya bezopasnost'*.Uchebnik dlya studentov VUZov.M..Akademicheskiy proekt Fond «Mir»,2003.-640s.

11. Informatsiya.Diplomatiya.Psixologiya.M.:«Izvestiya»,2002.616s

12. V.I.Xozikov.Informatsionnoe orujie.Sankt-Petburg.Izdatel'skiy Dom «Neva»,Moskva.Izdatel'stvo «OI.MA-PRESS Obrazovanie»,2003.

13. Lopatin V.N.Informatsionnaya bezopastnost' Rossii:Chelovek. Obshestvo. Gosudarstvo Sankt-Petburg. Izd. MVD Rossii i Sankt-Petburgskogo universiteta (Fond «Universitet»).2000.

14. Natsional'naya bezopastnost': Informatsionnaya. Sostavlyayushaya V.V.Eremenko,Yu.I.Kovalenko i dr.;pod red.V.V.Eremenko.-M.: MOSU,2000.-331s.

4-mavzu: Shaxs, jamiyat va davlatning axborot-psixologik xavfsizligidagi manbalar va ularning turlari.

Reja:

- 1.Shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlariga axborot tahlidi.**
- 2. Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari.**
- 3. Jamiyat axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari.**

Tahdidlar tasnifi: ob'ekt va unga munosabat, kelib chiqishi, ta'sir xususiyati, zarar ko'lami va miqdori bo'yicha tasnif. Tahdidlar turilcha bo'lishi mumkin: shaxs, jamiyat va davlatga, ichki va tashqi, katta va kichik, uzoq va yaqin, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik, milliy va boshqalar.

Axboriy faoliyatning sub'ektlari sifatida davlat tuzilmalari, ommaviy axborot vositalari, turli katta (korporatsiya, assotsiatsiya, birlashma, kontsern...) va kichik (korxona, idora, vakolatxona...) tashkilotlar xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy bosqichda, ya'ni, internet paydo bo'lganidan keyin, shunday sub'ekt sifatida alohida shaxslar ham faoliyat ko'rsatishi mumkin, masalan, virtual makonda o'z saytini ochish yo'li bilan.

Tahdid ob'ektlarini tasniflashda ikki yondashuv mayjud. Birinchi va keng tarqalgan nuqtai nazar bo'yicha bunday ob'ektlar uchta: davlat, jamiyat va shaxs. Ikkinci qarashning tarafдорлари fikricha, tahdid ob'ektlari sotsiologik tasniflashga mos tushsa, to'g'riroq bo'ladi. Ya'ni, bunday ob'ektlarga jamiyat, ijtimoiy sinf, katta va kichik ijtimoiy guruhlar hamda shaxslarni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

Ta'sir ko'rsatish yo'llari ta'sir etuvchi tomonidan ob'ektga mos ravishda tanlanadi, barcha ob'ektlar uchun bu xil usul to'g'ri kelmaydi. Davlatga ta'sir bir yo'l bilan amalga oshirilsa, shaxsga ta'sir etish uchun boshqacha usul tanlanadi.

Zararning ko'lami va miqdori ham turlicha bo'lishi mumkin, juda katta darajadan uncha ahamiyatlari bo'limgagan hajmgacha. Bu esa o'z navbatida ta'sir etuvchining maqsadi, moddiy, ilmiy, psixologik va texnik imkoniyatlariga bog'liq.

Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, jamoatchilik fikri va mamlakat ma'naviy yuksalishiga axborot tahdidi. Axborot tahdidi shunday bir universal xarakterga egaki, uning barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qilish imkoniyati bor: shaxs dunyoqarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga va oxiri oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham. Chunki axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi uncha ham ko'zga tashlanmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zi esa mustahkam irodali bo'lishi zarur. Har bir mamlakat aholisining asosiy qismi esa bunday imkoniyatga ega emas. Shuning uchun axboriy-psixologik barqarorlikka birinchi o'rinda axborot tarqatuvchilar ega bo'lishi shart: davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va boshq.

Bu haqda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov shunday degan: «Ma'rifatparvarlik biz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatlari kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni echmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo'lmaydi» (Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: «O'zbekiston», 2000. 23-24 b.).

Davlat siyosatini ta'minlashdagi axboriy tahdid. Axboriy tahdidlarning eng xavfli - davlat siyosatini ta'minlashga halaqit berayotganlaridir. Chunki, agar shaxsga salbiy ta'sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo'yadi. Bu juda katta va jiddiy muammodir, shuning uchun biz uni mazkur fanni o'zlashtirish jarayonida turli nuqtai nazardan o'rganmoqdamiz.

Mamlakat axborot takomilidagi tahdidlar; ichki bozorni axborot bilan ta'minlash; milliy axborot texnologiyalari va resurslaridan foydalanish hamda uni to'plash. Axboriy tahdidlarga qarshi kurashning yaxshi yo'llaridan biri - mamlakat o'zini o'zi axborot bilan ta'minlashi. Albatta, bunday axborot to'liq, sifatli va haqqoniy bo'lishi shart, aks holda jamiyat a'zolari yanada xorijiy manbalarga murojaat etadilar va bunga hech kim to'siqlik qilolmaydi. Aslida ichki hududni axborot bilan etarli darajada ta'minlash uncha ham qiyin emas, chunki bugungi kunda axborot texnologiyalari juda keng ishlatalmoqda va axborot tarqatadigan sub'ektlar mamlakatning

hamda dunyoning turli burchaklaridan xohlagan ma'lumotlarni olib mamlakat ichida turqutishi mumkin. Faqat ushbu ishda loqaydlik va o'zibozarchilikka yo'l qo'ymaslik zarur. Chunki inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqeal bo'yicha uch-to'rt soat ichida ma'lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo'lgan axborot bo'shligini har xil uydurma va mishmishlar to'ldiradi.

Axborot va telekommunikatsiya vosita va tizimlari xavfsizligiga tahdidlar. Birinchi Iroq urushi paytida Iroqning o'sha davrdagi prezidenti Saddam Husaynning kuchli armiyasi bor edi. Ammo mazkur armiya bir necha kun ichida AQSh harbiylari tomonidan tor-mor qilindi. Buning sababi nimada? Birinchi o'rinda AQSh harbiylari Iroq armiyasining harbiy kommunikatsiyalarini, jumladan, kompyuterlarini ishdan chiqardilar. Bundan keyin texnika va askarlarni engish qiyin bo'lmadi.

Mazkur misoldan har bir mamlakat o'z axborot tizimlarini xavfsizligini ta'minlashi naqadar muhim ekanligini anglab olish qiyin emas. Axborot asrining muhim ko'rsatkichlaridan biri - davlat va jamiyatning barcha bo'g'lnlari uchun tezkor axborot almashinuvি birinchi hayotiy zaruratga aylanishi. Bu ishni qila olganlar zamona bilan hamnafas yashaydi, eplomaganlar esa orqada qolib ketaveradi va bunday qolqolik kundan kunga oshadi. Demak, rivojlanishni xohlagan davlat birinchi o'rinda o'z kommunikatsiya tizimlari faoliyatini, butunligini, ularni xavfsizligini ta'minlashi zarur.

Axborot - psixologik ta'sir vositasi sifatida. Inson uchun axborot - eng ta'sirchan vositadir, chunki uning ongi bor. Mantiqiy isbot, qolaversa, axborot etkazishning eng oddiy usullari shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'yolmaydi. Shuning uchun targ'iboti haddan kuchli mamlakatning aholisi fanatiklarga o'xshaydi, masalan, Hitler davridagi nemis byurgerlari. Insonning tabiat shunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yasholmaydi. Har bir odam ma'lumotni ko'radi, eshitadi, o'qiydi va eng muhimi, doimo, uzluksiz ravishda, kechayu-kunduz unga etib boradigan axborotning ta'sirida yashaydi. Shuning uchun axborot yordamida kimadir ruhiy ta'sir qilmoqchi bo'lganlarga o'sha odamning psixologiyasi ko'maklashadi, agar ushbu inson axborotni o'yamasdan qabul qilaversa.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari va umumiyoit tavsifi: tashqi va ichki tahdid, uning tuzilishi hamda mohiyati. Yuqorida aytganimizdek, shaxs tomonidan axborotni qabul qilishning hal etuvchi mezoni - bu insonning ongi borligidir. Mazkur ongdan foydalananib, mantiqiy isbot yordamida odamga xohlagan, eng nomal qul g'oyani ham «to'g'riligini» isbotlash mumkin, bu qiyin emas. Buning uchun dalillarni ustalik bilan tanlab, isbot jarayonini yaxshi tuzish kifoya. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbasi - bu insonning o'zidir.

Undan tashqari boshqa manbalar ham bor. Ular, eng avvalo, tashqi va ichki manbalarga bo'linadi. Tashqilari qatoriga boshqa mamlakatlar O'zbekiston axborot hududida hukmronlik

qilishga yo`naltirilgau harakatlardan hosil bo`ladi va turli noxolis siyosiy, harbiy, iqtisodiy, jamoaviy tuzilmalar vakillarining O`zbekiston fuqarolariga nisbatan salbiy ta'sir ko`rsatishidan iborat. Bunday harakatlar, jumladan, xorijiy OAV, turli nodavlat, jamoaviy tashkilotlar, jamg` armalar, guruhlar va h.k. tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki tahdidlar sirasiga aholini axborot bilan ta'minlashning huquqiy va iqtisodiy asoslari etarli emasligi, fuqarolik jamiyatining institutlari rivojlanmayotganligi va fuqarolarning davlat va nodavlat tashkilotlariga murojaatlari javobsiz qolib ketishi, axborot bozori qanday rivojlanishi davlat tomonidan nazorat qilmasligi, fuqarolar davlat tuzilmalari faoliyati haqidagi etarli axborot ololmasligi hamda yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ularga tushuntirib berilmasligi va boshqalar kiradi.

Shaxs ruhiyatining bioijtimoiy tabiatini, uning xususiyati, shakllanishi va boshqariluvni, kishining shaxsiy tavsisi va axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida uning ahamiyati. Inson ruhiyati bioijtimoiy tabiatga ega ekanligini ko`pchilik bilsada, bu holatga va bundan kelib chiqadigan oqibatlarga uncha ham e'tibor berilmaydi. Bioijtimoiy tabiat esa inson hulqi va ongi uchun etakchi omil. Demak, keng auditoriya bilan ishslash jarayonida psixologiya qonuntarini bilmasdan samarali faoliyat ko`rsatib bo`lmaydi. Inson psixologiyasining negizini biologik fazilatlar tashkil etadi, odatda biologik jihatdan tinch bo`lgan oddiy odam ijtimoiy sifatlarga ega bo`lishga qodir. Zigmund Freyd, Karl Yung va shular kabi faylasuf-psixologlar isbotlab berilgani bo`yicha, inson ongingin fundamentini ongsiz biologik xususiyatlar (shaxsiy va jamoaviy ongsizlik) tashkil etadi. Shunday ekan, axborot xavfsizligi sohasida ixtisoslashayotgan mutaxassislar buni e'tiborga olishlari zarur.

Masalan, har bir inson xulqi, nuqtai nazari va pozitsiyasi turli axborot yordamida har xil boshqarilishi mumkin. Siyosatshunoslar yoki jurnalistlar bir voqeani, bitta faktini shunday talqin qila oladiki, undan keng auditoriya ijobjiy yoki, teskarisi, salbiy xulosa chiqarishi odatiy hol bo`lib qolgan. Shunday ekan, axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida faoliyat ko`rsatidigan O`zbekiston OAV ular uchun eng muhim omillar bo`lgan tezkorlik va haqiqatgo`ylik printsiplari asosida ish olib borishlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari. Bunday manbalar ko`p, ularning asosiy qismi shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari tarkibida keltirildi. Qo`shimcha ravishda butun jamiyat va millatga xavf solayotgan manbalarni keltirish mumkin, masalan, millatchilikni, shovinizmni, imperiyaviy tafakkur, mafkuraviy ekspansionizm va boshqa shu kabi illatlarni qo`zg`atuvchi davlatlar, tashkilotlar va shaxslar (qarang: Paxrudinov Sh. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. T.: «Akademika», 2006. 73 b.).

Axborotda hududiy munosabatlari: axborot olish hududini ta'minlash; shaxsiy hayot va oila siri, sirli yozishmalar daxlsizligini ta'minlash. eng avvalo aytish kerakki, axboriy xurujni

hudud jihatdan oltita asosiy turga ajratish mumkin: 1)umumsayyoraviy (bir qutblı, yani «odnopolyarniy» dunyoni tashkil etishga harakat qiluvchi davlatlar tomonidan amalga oshiriladi); 2)qit'aviy (Osiyo yoki boshqa qit'aga nisbatan); 3)regionli (o'zaro chegaradosh, masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan); 4)davlat (O'zbekiston)ga nisbatan; 5)mintaqaviy (masalan, Farg'on'a vodiysi); 6)mahalliy (viloyat, shahar, tumanga nisbatan).

Tabiiyki, har bir davlat o'z axborot hududini o'zi tashkil etadi. Boshqa davlat tomonidan ushbu mamlakat hududida intensiv ravishda axborot tarqatish axboriy xuruj hisoblanadi, bunday harakat ushbu davlatni o'z axboriy makonini haqlı ravishda himoya qilishga undaydi. Himoya qilinadigan sohalarga davlat va jamiyat manfaatlaridan tashqari shaxsiy hayot daxlsizligini, oilani asrash va sirli yozishmalarni asrash ham kiradi.

Axborot ko'lamini shakllantirish, ichki va xalqaro miqyosdagi axborot almashinuvida davlat siyosatidan foydalanish; axborot texnologiyalari oqimiga iqtidorli dasturchilar va boshqa mutaxassislarini yo'naltirish.

Axborot ko'lamini shakllantirish jarayonida dunyoviy tamoyillardan kelib chiqish zarur. Qaysi bir mamlakat ushbu tamoyillarni inkor qilsa, uning axborot tarqatish jabhasidagi intilishlari kerakli natija bermaydi. Dunyoviy tamoyil esa birinchi o'rinda bugungi axborot oqimlari juda katta hajmda va jadal sur'atlarda tarqatilayotganidan iborat. Bunday sharoitni e'tiborga olib, qolaversa, ularga moslashib ish olib borish, sarf-harajatlardan kelib chiqib, yuqoriroq natija olishga yordam beradi. Qisqa qilib ushbu fikrni quyidagicha bayon qilish mumkin: agar O'zbekistonga nisbatan axborot xurujini raqiblar tomonidan katta maydon bo'yicha, ya'ni, noaniq axboriy otishmaga qiyoslasak, O'zbekiston davlati va OAV o'z ishini aniq hudud va aholi qatlamlariga rejalashtirilgan shaklda izchil ravishda olib borishi zarur.

O'zbekiston davlati dunyo hamjamiyatining teng vakili sifatida mustaqillikning birinchi kunlardan boshlab turli yo'nalishlar bo'yicha o'z oqilona siyosatini ishlab chiqdi va unga amal qilib kelmoqda. Mamlakatimiz ichki va xalqaro miqyosidagi axborot almashinuvida o'ziga xos va mos hamda boshqa mamlakatlarga zarar etkazmaydigan davlat siyosatidan foydalar: noqda. Shuni ham aytish kerakki, shu siyosatga muvofiq ish olib borish barchalarga: davlat tuzilmalari, OAV, jamoat tashkilotlari uchun, kolaversa, butun mamlakat uchun foyda berishi muqarrar. Ushbu siyosatdan cheklanish esa davlat miqyosidagi birlikka, hamjihatlikka putur etkazadi.

Ma'lumki, insoniyat rivojlanishining «uchinchı to'lqin» bosqichida davlatlarning asosiy boyligi axborotdir. Demak, har bir mamlakatga axborot bilan ishlaydigan mutaxassislar ham kerak. Odatda bunday odamlar sifatida jurnalistlar tilga olinadi. Lekin bu masalaning faqat bir qirrasи. Undan tashqari axborot bilan samarali tarzda siyosatshunoslar, polittexnologlar, o'qituvchilar va boshqalar ham ishlaydi. Oxirgi yillarda bunday mutaxassislar safiga piarmenlar ham qo'shildi. Lekin axborot texnologiyalari rivojlangan davrda eng kerakli mutaxassislar kompyuter

dasturchilaridir. O'z davlatini rivojlantirmoqchi bo'lgan hukumat axborot asrida birinchi o'rinda ushbu toifadagi mutaxassislarini tayyorlash zarurligini anglaydi va kun tartibiga qo'yadi. Ma'lumki, O'zbekiston respublikasi ham mazkur masala bo'yicha jadal harakat qilib, bugungi kunda ko'p viloyatlardagi universitetlar tarkibida shunday mutaxassislikni ochdi. Jurnalistlar tayyorlash masalasi bo'yicha sakkiz yil ichida ikkita Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni shaxsga ta'sir etuvchi vosita va usullari. Axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tarqatish mexanizmlari, jamiyatdagi transformatsiya va qaytalanishi. Axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta'sir etuvchi vosita va usullari aslida ko'p, lekin an'anaviy ravishda ular uchta asosiy turga bo'linadi: 1)davlat etkazadigan; 2)OAV; 3)norasmiy muloqtdagi axborot. Norasmiy axborot deb, shaxs mahallada, ish joyida, o'roqlaridan, trasport vositalarida, gaplarda eshitgan ma'lumotlarga aytildi.

Axborot bilan ishslash bir nechta asosiy bug'lnarni tashkil etadi, ularning ish mexanizmi esa quyidagidan iborat: 1)ma'lumotni qabul qilish, anglab olish va eslab quyish; 2)axborotni anglash va eslab quyish jarayonida materialni qabul qiluvchi tomonidan uning bilimi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda qayta ishslash va yangilangan axborotni shaxs xotirasida saqlash; 3)axborotni tarqatish. Har bir bosqichning o'z qoidalari bor va ularga rioya qilmagan odam ushbu faoliyatda inqirozga uchrashishi aniq. Axborotni qabul qilish eng oddiy narsa, lekin bu erda ham, agar eshitish, ko'rish yoki o'qib olish uchun etarli sharoit bo'lmasa, keng omma ma'lumotni tushunmaydi va eslab ololmaydi. Axborotni anglashga kelsak, auditoriya vakillari turli ijtimoiy qatlamlarga tegishli bo'lishi tufayli ular barcha axborotni eslab qololmaydi, shuning uchun xorijiy shovvoz jurnalistlar o'z xabarlarini iloji boricha sodda, qisqa va aniq tarzda uzatishga harakat qiladi, materialning asosiy g'oyasini esa bir necha marta takrorlaydi. Ular har bir fuqaro eshitgan yangilikni o'zi yashaydigan sharoitga qiyoslab tushunishini juda yaxshi biladi va uzatiladigan ma'lumotlarni aynan ushbu talabga moslashtirib tarqatadi. Shuning uchun axborot xavfsizligi sohasidagi mutaxassislar yuqorida keltirilgen qonuniyatlarini e'tiborga olib ishchlashlari zarur.

Axborotni tarqatish mexanizmi esa katta tizim orqali amalga oshiriladi, bular matbuot, radio, televidenie va internet. Bu haqda biz keyingi ma'ruzada to'xtalamiz.

Transformatsiyaga kelganda aytish kerakki, har bir shaxs va ijtimoiy qatlam qabul qilgan axborotini o'zining yoshi, hayotiy tajribasi, millati, bilimi, kasbi, jamiyatdagi mavqeい nuqtai nazarlaridan qabul qilib, ushbu ko'rsatkichlarga qarab moslashtiradi yoki boshqacha qilib aytganda, qabul qilingan ma'lumot ma'lum bir transformatsiyaga uchraydi. Odamning tajribasi va bilimi qancha ko'p bo'lsa, unga chetdan turib ta'sir qilish imkoniyatlari shuncha kam bo'ladi.

Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning shakllanish omillari, uning ta'sir doirasi kengayishi. Zamонавиy bosqichda shaxsnинг axboriy-psixologik xavfsizligiga tahdidlarning ko'lami ancha keng. Bularning ichida asosiyalar deb quyidagilarni keltirish mumkin.

Birinchi o'rinda shaxs qadr-qimmatini poymol qilmaslik, fikr va so'z erkinligi, adabiy, badiiy va ilmiy ijod erkinligi. Ikkinchidan shaxsiy hayotning dahlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirmi himoyasi. Uchinchidan ommaviy axborot vositalari erkinligi, har bir kishi ularda qonun doirasida o'z fikrini ayta olishi. Mutaxassislarining kuzatuvlariga muvofiq, OAVda fuqarolar o'z fikrlarini erkin aytishlari davlat uchun xavfli emas, odamlar esa ularning so'zini boshqalar ham etishitishini xohlaydi va shunga intiladi. To'rtinchidan - ma'naviy qadriyatlarga, xalqning urf-odatlariga, jamiyatning madaniy merosiga kimningdir tomonidan xujum qilinishi.

Tayanch iboralar:

- 1. Tahdid - axborotning shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlariiga tahdidi.**
- 2. Tahdid - jamiyat axborot - psixologik xavfsizligiga tahdидning manbalari.**
- 3. Milliy axborot - texnologiyalari, resurslari, uni to'plash va undan foydalinish usullari.**
- 4. Axborot - psixologik ta'sir vositasini sifatida.**

Nazorat savollari:

- 1. Shaxsning Axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidning manbalari nimalardan iborat?**
- 2. Axborot-psixologik xavfsizlikning tashqi va ichki tahdidi deganda nimalarni tushunasiz?**
- 3. Shaxs ruhiyatining bioijtimoiy tabiatini axborot-psixologik xavfsizlik tahdidi tizimida qanday ahamiyatga ega?**
- 4. Axborot-psixologik xavfsizlikni shaxsga ta'sir etuvchi vosita va usullari nimalardan iborat?**

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild,
- 3.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil.
- 4.Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil.
- 5.Zapasnuk M. Loj' v politike G`G`Filosofskie nauki. 1991. №8, str.98.
- 6.«Polis» jurnali, Moskva, 1994 yil, 1-son, 42-bet.
- 7.Machiavelli H. Opere Scolte, 1973, R.8.

5-Mavzu. Ommaviy axborot vositalari va axborot qarama-qarshiligi

Reja:

- 1. Dunyoda axborot o`lchovlarining o`rganilishi.**
- 2. OAV axborot-psixologik urushni olib borish vositasi sifatida.**
- 3. Psixologik ta'sir texnologiyasi. Yuqori texnologiya va ommaviy kommunikatsiya.**

Bu`zi bir davlatlarning axborot bozoridagi hukmronligining oshish tendentsiyasi, xalqlar, davlatlar va madaniyatlar xususida ularning shaxsiy qarashlarini shakllantirishga intilishi.

Ma'lumki, bugungi kunda axborot oqimlari haddan tashqari jadal va keng ko'lamlidir. Bitta misol: oxirgi elliq yil ichida jamiyatda aylanadigan axborot hajmi million marta ko`paydi va kundan kunga yanada oshib bormoqda. Bu shunday bir katta raqamki, uni to`la darajada anglab olish ham qiyin. Shuni aytish zarurki, bunday imkoniyatlar hamma davlatlarga ham xos emas.

Demak, texnikaviy jihatdan qudratli bo`lgan davlatlar kuchli axborot texnologiyalariga ega. Shuning evaziga ular o`zлari ishlab chiqqan axborotni tarqatish yo`li bilan boshqa mamlakatlar ustidan oldin g`oyaviy, keyin esa siyosiy, iqtisodiy va madaniy hukmronlik qilishga harakat qilmoqda. Bunday davlatlar sirasiga eng avvalo rivojlangan mamlakatlar kiradi. Mazkur mamlakatlarning axborot manbalari sifatida birinchi o`rinda davlat axborot markazlari va milliy OAV xizmat qiladi.

Axboriy hukmronlikning maqsadi bitta - axborot tarqatadigan mamlakatning maskurasini boshqa davlatlar va xalqlar o`rtasida keng tarqatish va targ`ib qilish. Lekin bunday vazifa borligi haqida ular ochiq oydin aytmaydi, aksincha, uni har xil yo'llar bilan yashiradi. Masalan, inson huquqlari yoki demokratik andozalar niqobi ostida va hokazo.

«Birinchi darajali» va «rivojlanmagan» davlatlar haqidagi afsonaning yaratilish ehtimolini mavjudligi. «Birinchi darajali» va «rivojlanmagan» davlat haqidagi afsonalar aslida bir necha asrlik tarixga ega. Ammo sayyoramiz mamlakatlarini bunday toifalarga bo`lish uchun asos yo`q. Iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy jihatlardan rivojlangan mamlakatlar aholisi yaxshi yashaydi degan gapning o`zi uncha ham to`g`ri emas. «YAxshi yashash» nima degani? Moddiy boylik etarli ekanligimi? Unda nega aholisi eng uzoq umr ko`radigan YAponiya bir necha o`n yilliklar davomida dunyo mamlakatlari ichida o`z joniga qasd qiluvchi fuqarolar soni jihatidan dunyoda birinchi o`rinda turadi? Nega Samarqand va Buxoro to`ylarini ko`rgan frantsuz va nemislar bizning urfodatlarimizga havas bilan qaraydilar va «sizlarga Evropa madaniyati kerak emas ekan» degan fikrlarni bildiradilar? Bu AQSh professori Samyuel' Xantington aytgan madaniyatlar (tsivilizatsiyalar) to`qnashushi emas, aksincha, ular turfa xilligi, kolaversa, sirtqi dialogidir.

OAV axborot-psixologik urushni olib borish vositasi sifatida. Afsuski, ayrim OAV bugungi kunda shunday vositaga aylanganlar. Ushbu urushda OAVning o`rni va rolini aniqlash uchun eng avvalo axborot-psixologik urushni ma`nosini anglab olishimiz zarur. «Axborot urushi»

so'zlarining asoschisi fizik-olim Tomas Ron hisoblanadi, 1976 yilda u axborotni harbiy kuchlarning eng zaif bo'g'ini deb ta'riflab, ushu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas'ul kishilarni e'tiborini qaratdi. Shundan beri mazkur so'zlarning ahamiyati kundan kunga kuchayib kelmoqda.

Bevosita axborot urushi ta'rifiga kelganda biz bir kitobdan iqtibos keltirmoqchimiz: «Axborot urushi deb, ijtimoiy, siyosiy, etnik va boshqa tizimlarning moddiy yutuqqa ega bo'lish maqsadida bir biriga ochiq va yashirin maqsadli axboriy ta'sirlarga aytildi. Shu bilan bir qatorda axborot urushini deb yanada raqib ustidan axboriy hukmronlikka erishish va shuning evaziga unga moddiy, maskuraviy yoki boshqacha zarar etkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operatsiyalar majmuasiga aytildi» (Manoylo A.V., Petrenko A.I., Frolov D.B. Gosudarstvennaya informatsionnaya politika v usloviyakh informatsionno-psixologicheskoy voyno'. 2-nashr. M.: Goryachaya liniya - Telekom. 2006, 203 b.).

Turli OAV (televidenie, radio, davriy matbuot)ning o'ziga xos psixologik ta'siri. Har bir OAV auditoriyaga o'ziga xos ta'sir etish kuchiga ega. Internetgacha ularning ichida eng samaralisi televidenie edi, chunki u tomoshabinga uch yo'l bilan axborot etkazadi: tasvir, ovoz va mantiq. Shuning uchun televidenie ommaviy ravishda tarqalganidan keyin besh-o'n yil ichida besh yuz yillik tarixga ega bo'lgan matbuotdan o'zib ketdi. Radio ham katta kuchga ega, chunki u ikki kanal orqali ta'sir ko'rsatadi, ovoz va mantiq. Uning afzalligi - jonli ovoz yordamida auditoriya bilan muloqot qilish, bunday usul axborot manbai bilan tinglovchi o'rtaqidagi masofani yo'qotadi. Inson ovozi, uni yurakdan chiqishi, undagi hayajon va samimiylilik radioning imkoniyatini keskin oshiradi.

Matbuotning o'quvchi bilan muloqot yo'li esa asosan mantiqiy isbotdan iborat, bunday ta'sirga ma'lum miqdorda tasvir ham qo'shiladi: gazetadagi rasmlar, rang, sarlavhalar ko'rinishlari.

Psixologik ta'sir texnologiyasi. Yuqori texnologiya va ommaviy kommunikatsiya. Psixologik ta'sir inson axborotni qabul qilish yo'llari bilan bog'liq: ko'rish, eshitish, ta'mini bilish, hidini sezish, qo'l bilan tegish, fikrlash va x.q. Axborot xavfsizligi masalasiga kelganda psixologik ta'sir ko'proq OAV yordamida amalga oshiriladi, shuning uchun ular mutaxassislar tomonidan tinmasdan mukammallashtirilmoqda. Natijada rivojlangan mamlakatlar matbuot, radio va televideniening barcha imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan internetdek yuqori texnologiyaga ega bo'ldilar.

Internet ommaviy kommunikatsiya ta'sirini eng baland pog'onaga ko'tardi. Saytga joylashtirilgan ma'lumot birdan butun dunyo bo'yicha tarqalib ketadi. Uning adadi (tiraji) esa cheksiz. OAVning roli internetgacha ham kuchli bo'lgan, endi esa ularning ta'siri tasavvur qilib bo'lmaydigan darajaga etdi. OAVdan tashqari internet reklama, ma'lumotlar etkazish, elektron pochta xizmatlarini ham bajaradi. eng qulayi shundaki, internetdagi ma'lumot juda ko'p, u arzon va o'ta tezkor.

Internetning paydo bo'lishi va internet jurnalistikasining takomili. Internetni ko'p mutaxassislar harbiylarning ixtirosi deb aytadi. Aslida esa dastlabki bosqichda uni AQShdag'i to'rtta universitet kashfi etdi. Mazkur universitetlar komp'yuterlarini bir tizimga birlashtirib, o'zaro kutubxonalaridan foydalana boshladilar. Pentagon esa bundan tez xabar topdi. Va ixtironing imkoniyatlarini o'rGANIB, undan harbiy qo'mondonlikni takomillashtirish maqsadida olimlarni jalb etib, ularga barcha sharoitlarni yaratib, arpanetni (internetning birinchi nomi) o'z maqsadlariga yo'naltirdi. Uzoqqa bormay undan jurnalistlar ham foydalana boshladi. Natijada internet jurnalistikasi paydo bo'ldi.

Internet jurnalistikasi - katta va muhim mavzu, uni ma'ruzaning bir qismida ochib berishning iloji yo'q Shuning uchun biz faqat uning ijobiylar va salbiy tomonlarini aytib o'tamiz. Internetning qulayliklari: arzon, tezkor, texnik jihatdan materiallarni joylashtirish qiyin emas, ma'lumotlarni katta hajmda o'rnatish mumkin, ularni turli tillarga o'girish oson, axborot chegara va masofani bilmaydi va x.k. Salbiy oqibatlari: xohlagan odam istagan axboroti bilan virtual maydonga to'siqsiz kirib kelishi, nazorat yo'qligi va shu tufayli terroristik hamda pornografik ma'lumotlar o'ta ko'pligi, kosmopolitik g'oyalari hamda «universal madaniyat» keng tarqalishi, davlat roli pasayishi, tarmoq yordamida demokratik fundamentalizm rivojlanishi va boshq.

Neyrolingvistik dasturlash va doimiy, uzlusiz efirga uzatiladigan televizion xabarlar natijasida turli millat va xalqlar ongiga ta'sirning o'sishi. Neyrolingvistik dasturlashni ayrim mutaxassislar (masalan, G.G.Pocheptsov) tomonidan unga hech narsani qarshi quyib bo'lmaydigan shprits ta'siriga qiyoslaydilar. Bunday o'xshatishda ma'lum bir haqiqat bor. Agar biror-bir g'oyani, u yolg'on bo'lsa ham, OAV haddan tashqari ko'p va turli shakllarda takrorlavversa, auditoriya (garchi u ushbu g'oyaga dastlabki bosqichda ishonmagan bo'lsada) borib-borib keyincha unga ishonadigan bo'ladi. Har xil uslublarda, barcha OAVda ma'lum bir fikrni takrorlash odamning ostki ongiga ta'sir etadi va u ushbu fikrga ishonaydigan bo'ladi. Mazkur jarayonni mutaxassislar neyrolingvistik dasturlash deb ataydi.

Agar radio, televidenie va matbuotda ayrim davlat, guruh yoki shaxs haqida qayta-qayta biror-bir noto'g'ri baho takrorlanaversa, turli mamlakatlardagi xalqlar, har xil millatlar unga ishonadilar. Neyrolingvistik dasturlash uchun eng qulay OAV televideniedir, chunki u auditoriyaga bir paytni o'zida uchta kanal orqali o'z ta'sirini o'tkazadi. AQSh kommunikativistlari televidenieni xatto trankvilizatorga ham o'xshatadilar.

«Madaniy bosqich» va «inson huquq»lari ekspansiyasi tushunchasining mohiyati va uning paydo bo'lish shakllari. «Madaniy bosqich» va «inson huquq»lari g'oyalari G'arbda paydo bo'lib, G'arb mamlakatlari tomonidan butun dunyo buyicha tarqatilmoqda. Bu esa juda murakkab va eng muhim, samarasiz jarayon. Katta muhokamalarga sababchi bo'lgan Samyuel' Xantingtonning «Madaniyatlar to'qnashuvi» deb nomlangan maqolasini o'qimagan siyosatshunos

bo`lmasa kerak. Afsuski, o`zbek tiliga tarjima qilinganda, maqolaning eng muhim parchasi tushib qolgan. Ushbu bo`shlikni to`ldirishga harakat qilamiz: «Turli jamiyatlarning madaniy qadriyatlari o`rganishga bag`ishlangan yuzta asarni qiyosiy usulda o`rganib chiqqan bir muallif (Harry C. Triandis nazarda tutilmoqda - F.M.) o`z obzorida shunday xulosaga kelganki, «g`arb jamiyatida eng e`zozlanayotgan qadriyatlар dunyoning qolgan qismida eng past ahamiyatga ega ekan». Siyosiy jihatdan ushbu qarama-qarshilik AQSh va boshqa g`arbiy davlatlar tomonidan boshqa xalqlarni demokratiya va inson huquqlariga tegishli g`arbona g`oyalarni qabul qilishga majburlash samarasiz ekanligini ko`rsatmoqda. Zamonaviy demokratik tuzum G`arbda paydo bo`ldi. Nog`arbiy davlatlar tomonidan esa bunday tuzum g`arbona kolonializm yoki majburlash hosili deb qabul qilinadi». Xerri Triandis obzoridagi g`oyalalar «N`yu-York Tayms» gazetasida 1990 yil 25 dekabr' kuni 41 betda ham chop etildi. Zamonaviy ilmda buinday harakatlar «demokratik fundamentalizm» deb nom oldi.

YAngilik, uning ko`rinishi va shakllari. CHegaralanmagan jurnalistika; yangiliklarni tiklash yo`llari, faktlarni tartiblash va tahlil etish, yangiliklar blokining tartibi.

YAngiliklarning ko`rinishlari har xil bo`ladi: voqeа, hodisa, raqam, familiya, lavozimlar, joylar nomlari aks ettirilgan xabar, lavha, reportaj, ma'lumotnomalar va x.k. Bugungi kunga kelib yangiliklarni etkazish usullari g`oyaviy kurashning katta bir yo`nalishiga aylanib qoldi. Ushbu sohada esa nafaqat jurnalistlar, ular bilan bir qatorda siyosatshunoslar, polittexnologlar, iqtisodchilar, psixologlar, qisqasi, ommaviy axborotni ommaga etkazadigan barcha mutaxassislar ustasi farang bo`lib ketganlar. Ularning mahorati shu qadar rivojlanib ketdiki, yangilikdan, uning mazmunidan qat`iy nazar, qanday xulosa chiqarish kerak bo`lsa, shunday tarzda u auditoriyaga etkaziladi. Faktlarni esa kerakli tartibda tizimlashtirish qiyin emas, ularning ketma-ketligining o`zi auditoriyaga kerakli ma'lumotni beradi va axborot etkazuvchi uchun zarur bo`lgan dunyoqarashni shakllantiradi.

Axborot urushini aniqlash. Axborot urushi tarkibi: psixologik, elektron va dezinformatsion; axborot hujumi va uning turlari (to`g`ridan-to`g`ri, aylanma), axborot tizimining ishdan chiqishi. Axborot urushi ta`rifini biz yuqorida keltirgan edik. Ushbu fikri davom ettiramiz. Axborot urushining xususiyatlari quyidagilardan iborat. Birinchidan, axborot qurolini ishlab chiqish uncha ham qimmat emas va bu ishni turli sohalar mutaxassislar bajarishi mumkin. Ikkinchidan, chegaralarning nisbiyligi: davlatlar, qonuniy va noqonuniy harakatlar, harbiy va noharbiy janglar o`rtasida va x.k. Uchinchidan, hujumning oldini olish noilojligi. To`rtinchidan, zarami xisoblab chiqish murakkabligi. Beshinchidan, harbiy bloklar, birlashmalar tuzish qiyinligi va h.k.

Axborot quroli, uning o`ziga xosligi, zamonaviy dunyoda uni qo`llash imkoniyati va ko`lami. Axborot qurolining keng va tor ma`nolari bor. Keng ma`noda axborot quroli deb raqibni

kerakli yo`nalishda fikrlashga undaydigan, uning nuqtai nazarini o`zgartirishga qodir bo`lgan va kerakli axborot yordamida minlgi oshiriladigan harakatlarga aytildi. Tor ma`noda axborot quroli deb rakibning axborot zahiralari ustidan nazoratni ta`minlaydigan va uning telekommunikatsiyalari tizimlariiga zarar etkaza oladigan texnikaviy usullar va texnologiyalarga aytildi. Demak, **axborot quroli** - bu raqibning axborot va boshqaruva tizimlariga ta`sir etuvchi maxsus moslama va vositalardir. Tabiiyki, axborot texnologiyalari rivojlangan mamlakatlar tomonidan bunday quroldan foydalanish imkoniyatlari juda keng.

 **Axboriy qarama-qarshilikning maqsadi, vosita va shakllari, uni nazorat etish, jamiyatning umumiy holatiga keltiradigan psixologik zararlari.** Axboriy qarama-qarshilikning maqsadi - dunyoviy (global) axborot maydonida milliy mansaattlar himoyasini ta`minlash. Mazkur masqadga erishish esa turli mamlakatlar tomonidan turlicha amalga oshiriladi: texnologik kuchli davlatlar hukmronlik qilishga intiladi, rivojlanayotgan davlatlar esa o`zini himoyalashga harakat qiladi. Ikkala tomon ham o`ziga qulay keladigan usullardan foydalanadi.

Ammo shuni ham aytish kerakki, texnologik jihatdan kuchli davlatning axboriy xujumi boshqa mamlakatlar aholisiga katta psixologik zarar etkazadi. Chunki bunday urushni to`xtatadigan va agressor-davlatga nisbatan chora ko`rish uchun imkoniyat yaratadigan xalqaro me`yoriy hujjat yo`q. Rivojlangan mamlakatlar ushbu vaziyatdan keng foydalanmoqdalar.

Ommaviy kommunikatsiya - xorij OAVda axborot ekspansiyasidan himoyalanish, fikrlash va o`zini tutish vositasi sifatida. Xorijiy OAV ekspansiyasidan himoyalanish uchun eng qulay. choralaridan biri - mahalliy OAV. O`zbekiston sharoitida buning uchun milliy gazeta, radio va televideniyamizning imkoniyatlari bor, faqat ulardan samarali foydalanishimiz zarur. Buning uchun, bosh omil va mustahkam fundament - milliy istiqlol g`oyasidir.

OAV doirasida xalqaro korporatsiya; dunyo hamjamiyati va ayrim davlatlarda jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmi sifatidagi o`rni. OAV sohasida bevosita xalqaro korporatsiyalar kam va ular dunyo bo`yicha axborot tarqatish jarayoniga katta ta`sir ko`rsatolmaydilar. Bunday OAV sifatida biz Si-en-en va Bi-bi-si, Evron'yus va TV-5, Assoshiyeted Press va Frans Press, Reyter va ITAR-TASS, Amerika ovozi va Doyche Vellelarni tilga olishimiz o`rinliroq bo`lardi. Ushbu axborot manbalari AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va Rossiyalarga tegishli bo`lib, ular nafaqat yuqori tezlik va katta xajmda, shu bilan bir qatorda turli tillarda ma'lumotlarni tarqatadilar. Masalan, Bi-bi-si teleradiokorporatsiyasining o`zbek tilidagi sayti, Amerika ovozi radiostantsiyasining esa o`zbek tilidagi bo`limi bor. Biz ular O`zbekiston haqida tarqatadigan materiallarga befarq bo`la olmaymiz.

Xorij matbuoti, televidenie, radio va Internetning asosiy qadriyatları. Xorij OAVning aholiga ta`sir ko`rsatish yo`li, shakl va uslublari. Tabiiyki, bunday axborot manbalari, eng avvalo, iqtisodiy jihatlardan baquvvat davlatlar tomonidan ularga xos va mos bo`lgan qadriyatlarini,

jumladan, g`arbiy ko`rinishdagi «demokratiya standartlari»ni tarqatadi. Buning sababi nimada, deb o`zimizga savol bersak, javob quyidagicha bo`lishi mumkin. Gap shundaki, har bir xalq yoki millat tarixiy rivojlanib va shakllanib kelgan va ushbu ko`p asrlik jarayonning o`zi qaysi bir yashash usuli to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini isbotlab bergen. Agar ustiga ustak u yoki bu xalqqa mana bunday yashanglar, bu to`g`ri bo`ladi deb, uni shunga majburlasa, albatta, bunday zo`ravonlik, jumladan, «demokratik fundamentalizm» ko`pchilik tomonidan qabul qilinmaydi. Agar xorijiy OAV yoki tashkilotlar O`zbekiston hududida umuminsoniy qadriyatlarni tarqatishga yordamlashsa, ular o`zbekistonliklar tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Bunga misol sifatida mamlakatimizda ko`p yildan beri faoliyat ko`rsatadigan Konrad Adenauer yoki Fridrix ebert jamg` armalarini aytish mumkin.

Jamoa ruhiyati va uning o`ziga xos xususiyatlari. Axborot manipulyatsiyasi, uning maqsad va vazifalari, qoida, usul va shakllari. Jamoatchilik fikriga ta`sir etuvchi axborotning ijtimoiy fenomeni. Ommaviy auditoriyaga psixologik ta`sirning usul va shakllari. Alovida bir odamning ruhiyati jamoa ruhiyatiga teng emas, albatta. eng qizig`i shundaki, jamoa ruhiyatida ongsizlik darajasi balandroq. Ommaviy taassurotda OAV tomonidan aytilgan gaplarga birdan ishonish, vahimaga tushish, salbiy informatsiyaga ko`proq berilish kayfiyatları ancha kuchli. Buni Karl Yung «jamoaviy ongsizlik» deb ta`riflagan va bugungi kunda ushbu psixologik kategoriyani topib, uni isbotlab berilgani Yungning buyuk kashfiyoti deb hisoblanadi.

Axborot manipulyatsiyasiga kelganda, aytish kerakki ushbu muammo buyicha anchagina kitoblar chop etilgan va ular bilan tanishish foydadan holi bo`lmaydi. Biz esa manipulyatsiyaning ayrim kam tilga olinadigan turlarini aytish bilan chegaralanamiz. Bular: abstrakt, tushunarsiz fikrlash; manba tomonidan axborotni faqat uning foydasiga bo`lgan qismini etkazish; real faktlarni xomaki, noreal xulosalar bilan yakunlash; o`z vaqtida javob bermasdan dolzarb muammoni «sovutish» va h.k.

Axborotdan foydalinish madaniyati tushunchasi, tuzilishi va mohiyati. Axborotdan foydalinish madaniyati hech qachon o`zidan o`zi kelmaydi, bunday madaniyat bir qator omillarga bog`liq. Birinchidan, axborot iste`molchilari yuksak shaxsiy madaniyatga ega bo`lishlari lozim. Ikkinchidan, OAV va boshqa manbalardan kelayotgan ma'lumotni mag`zini chaqib, uning mualliflarini maqsadlarini anglab olish kerak. Uchinchidan, kasbiy o'sish va shaxsiy dunyoqarashni rivojlatiradigan ma'lumotlarni olib, keraksiz axborotni tez esdan chiqarish zarur va h.k.

Tayanch iboralar:

1. Axboriy qarama-qarshilik - maqsadi, vosita va shakllari.
2. Axborot quroli - uning o`ziga xosligi, zamonaviy dunyoda uni qo'llash imkoniyati va ko`lami.

3. Axborot urushi - türkibi: psixologik, elektron va dezinformatsion; axborot hujumi va uning turlari (to'g'rligan-to'g'ri, nylanma), axborot tizimining ishdan echiqishi.

4. Xorij axboroti -matbuoti, televidenie, radio va Internetning asosiy qadriyatları.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ma'rifatparvarlik haqida nima degan? («Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» asari bo'yicha).
2. Tahdidlar turlari qanday bo'ladi?
3. Axboriy-psixologik barqarorlikka birinchi o'rinda axborot tarqatuvchilar ega bo'lishi nima bilan shartlanadi?
4. Axboriy tahidlarga qarshi kurashning yo'llari nimadan iborat?
5. Mamlakatning axborot va telekommunikatsiya vosita va tizimlari xavfsizligiga tahdidlar qanday oqibatlarga olib borishi mumkin?
6. Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahidlarning manbalari va umumiy tavsifi nimadan iborat?
7. Shaxs ruhiyatining bioijtimoiy tabiatini tushuntirib bering.
8. Jamiaty axborot-psixologik xavfsizligiga tahidlarning manbalarini tavsiflab bering.
9. Axborot ko'l amini shakllantirish, ichki va xalqaro miqyosidagi axborot almashinuvida davlat siyosatidan foydalanishning ahamiyatini tushuntirib bering.
10. Axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tarqatish mexanizmini ifodalab bering.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil.
- 2.Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Asarlar 8-tom.-T.: O'zbekiston, 2000.-B.182-188.
- 3.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil
- 4.Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil
- 5.Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni- millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-son
- 6.Karimov I.A. «Olloq qalbimizda, yuragimizda» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.

- 7.Karimov I.A. «Milliy istiqlol maskurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» «Fidokor» gazetasi muxbir savollariga javoblar Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000 yil
- 8.Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari
- 9.«Iqtisodiy va informatsion havfsizlik zamonaviy muammolar» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to'plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma'sul M.M.Baxadirov. T.JIDU,2006.-137b.
- 10.YArochkin.V.I. Informatsionnaya bezopasnost'.Uchebnik dlya studentov VUZov.M..Akademicheskiy proekt Fond «Mir», 2003.-640s.
- 11.Informatsiya. Diplomatiya. Psixologiya. M.:«Izvestiya»,2002.616s
- 12.V.I.Xozikov. Informatsionnoe orujiye.Sankt-Petburg. Izdatel'skiy Dom «Neva», Moskva. Izdatel'stvo «OLMA-PRESS Obrazovanie»,2003.
- 13.Lopatin V.N.Informatsionnaya bezopastnost' Rossii: CHelovek. Obshestvo. Gosudarstvo Sankt-Petburg. Izd. MVD Rossii i Sankt-Petburgskogo universiteta (Fond «Universitet»).2000.
- 14.Natsional'naya bezopastnost': Informatsionnaya. Sostavlyayushaya V.V.Eremenko, Yu.I.Kovalenko i dr.;pod red. V.V.Eremenko.-M.: MOSU,2000.-331s.
15. Kalmikov A.A., Koxanova L.A. Internet-jurnalistika. M.: YuNITI-DANA, 2005.

6-mavzu: Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimining mohiyati.

Reja:

- 1.O'zbekiston axborot tizimining faol sub'ekti sifatida.**
- 2.Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning samarali yo'llari.**

Insoniyat axborot oqimi tobora tezlashgan, Yer shari aholisi kayfiyatini, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o'zgartirishga qodir bo'lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda. Bu hozirgi zamon tsivilizatsiyasining o'ziga xos yutug'i. Xalqlar, mamlakatlar, davlatlar o'zaro munosabatlarini tobora yaqinlashtirishga, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, dunyoviy kayfiyat, dunyoviy ruhiyat va maslakning vujudga kelishiga xizmat qiladigan mo'jizakor hodisadir.

Biroq tsivilizatsiyamning ana shunday ulkan, keng miqyosli va serqirra yutug' idan kim qanday maqsadlarda foydalanayapti? Umi beqiyos va qudratli kuchini nimalarga ishlatajapti? - degan haqli savol ham innummoga aylanmoqda.

Umuman olganda insoniyat tafakkuri kengayib, fan-texnika taraqqiyoti jadallahsgani sayin insoniyat o`zining buyuk yaratuvchilik qudratini namoyon etmoqda. SHu bilan birga o`zining boshini o`z og`ritadigan, o`z hayotiga o`zi tahdid soladigan, o`z istiqbolini mavhumlashtiradigan holatlarga ham duch kelmoqda.

Insoniyat yozuv ixtiro qilingunga qadar taxminan uch million yil og`zaki aloqa qilgan bo`lsa, keyingi besh ming yil ichidagina yozuv orqali muloqot qilishga o`rgandi. Undan besh yuz yil o`tib telefon, radio va televediniega ega bo`ldi. An`anaviy eshituv - ko`ruv vositalaridan komp`yuterlarga o`tish uchun esa atigi ellik yilcha vaqt kerak bo`ldi, xolos. Ana shu tarixiy haqlqatning o`zi inson tafakkuri taraqqiyoti, fan-texnika rivoji bilan bog`liq bo`lgan olamshumul o`zgarishlar dinamikasini ko`rsatadi.

Komp`yuterlarning yuzaga kelishi esa butun Er sharini yagona axborot makoniga aylantirdiki, natijada har bir mamlakat taqdiri va butun dunyo taqdiri bilan bog`liq bo`lgan voqelik yuzaga keldi.

Bugun, O`zbekiston ana shu yagona axborot tizimining faol sub`ektiga aylandi. Uning dunyo bilan aloqasi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ishtiropi, davlatlararo munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy aloqalari umumjahon axborot tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. Bu bevosita elektron pochta, elektron axborot almashish tizimi orqali ham milliy, ham dunyoviy muammolarni hal etishda faoliyat samaradorligini oshirishda, vaqtin tejashta, moliyaviy xarajatlarning keskin kamayishida, qolaversa, zamonaviy axborot almashtirish salohiyatini namoyon qilishda katta samara bermoqda.

Biroq bu jarayon bir qator muammolardan ham xoli emas. Jumladan, jahon axborot tizimidan foydalanish darajasining pastligi (5 %), internet tizimining keng rivojlanmagani, undan foydalanish darajasining pastligi ko`zga tashlanmoqda.

Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu bevosita axborot bozoridan foydalanayotganda qanday axborotlarni qabul qilish, qanday axborotlardan foydalanish borasidagi salohiyatni ham taqozo etmoqda. Chunki bozorning oddiy haqiqati shundaki, .har kim topganini savdoga chiqaradi. Sifati, mazasi, rangi, ta`mi yoki foydasи jihatidan tanlash xaridorning ixtiyorida. Ana shu hayotiy qonuniyat nuqtai nazaridan qaraganimizda jahon axborot bozorida bizning manfaatlarimizga zid bo`lgan, milliy xususiyatlarimizni, an`analarimizni, turmush tarzimizni mensimaydigan axborotlar ham xurj qilmoqda, hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Bu o`zidan axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta`minlash muammosini ko`ndalang qilib qo`ymoqda.

Hozirgi zamон axborot tizimi, uning judа keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliylar manfaat va umummilliylar taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqr anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quyidagi usullarini qo'llash zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, sotsiologik yo'naliш. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotida axborotning ijtimoiy vogeliк sifatidagi roldan kelib chiqib jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy ong yo'naliшlari, ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga quyish kerak. Aholi turli qatlamlari qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchidan, statistik yo'naliш. Ko'pmillatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'sratayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni, turli siyosiy manfaatlar va buзg'unchi g'oyalari ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan siyosiy nizolarni o'rganib borish. Bu borada aniq hisob-kitoblarga, tahliliy echimlarga ega bo'lish.

Uchinchidan, siyosiy, konfliktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot-psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buзg'unchi g'oyalari inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqishi mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarni aniqlash hamda uning natijasida jamiyatda shakllanishi mumkin bo'lgan jamoatchilik fikri, siyosiy qarashlari, ruhiyati - ijtimoiy-siyosiy psixologiya izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozim.

To'rtinchidan, mantiqiy-tizimiш va funksional tahsil. Axborot tizimi, xususan, axborot-psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muhim qismi sifatida baholanishi lozim. Vogelikka ana shu tarzda yondoshib, ilmiy-tahiliy, nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i, uning predmeti va metodologiyasini ishlab chiqish muhim bo'lib qoldi.

Beshinchidan, axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustivorligi. Har qanday fuqaro axborot bozoridan «mahsulot» tanlash jarayonida uning qalbida, ruhiyatida, kayfiyatida, fe'l-atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi xatti-harakati va munosabatida **maskuraviy immunitet** ustuvorligini ta'minlash.

Albatta, O'zbekistonda mustaqillikning o'tgan 15 yili mobaynida ommaviy axborot kommunikatsiyasi sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. eng avvalo, har bir fuqaroning so'z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlandi. Ommaviy axborot

vositalari to`g`risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo`llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko`paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o`ziga xos turraqqiyotidan dalolat beradi.

SHu bilan birga O`zbekiston jahon axborot tizimidan foydalanishning eng zamonaviy va tezkor texnologiyasini joriy etdi. Bu nafaqat davlat va hokimiyatning, rasmiy idoralarning, balki nodavlat-notijorat tashkilotlar, hatto, alohida fuqarolarning dunyo axborot bozoriga bemalol kirishi va undan bemalol foydalanishi imkonini beradi.

Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta`minlash tizimi bevosita ijtimoiy xarf, milliy tahdid, taraqqiyotga to`g`anoq sifatida baholanmog`ini va unga qarshi kuchli mexanizmni yaratishni taqozo etadi. Bunda davlat axborot siyosati alohida ahamiyatga ega. Albatta, O`zbekistonda axborot tizimi, uni boshqarish, undan foydalanish borasida qator qonunlari bor. Jumladan, axborot olish kafolatlari, elektron pochta, elektron raqamli imzo to`g`risidagi qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Biroq bular etarli emas. Chunonchi, zamonaviy axborot texnologiyalari tobora takomillashib, rivojlanib, axborot olish, saqlash, uni ishlash va tarqatishning shakllari, usullari, uslublari tobora kengayib bormoqdaki, bu butun ko`lamni bilan amaldagi qonunlarda o`z ifodasini topmagan.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. O`zbekistonda hozirgi mavjud ijtimoiy fikr, jamiyatning umumiyligi siyosiy-ma`rifiy darajasi zamonayiy axborot xurujiga va uning shiddatiga dosh berolmaydi. Aniqrog`i, uning butun ko`lamini, mohiyatini, axborot ostidagi yashirin g`oyani va axborot tarqatuvchi manba maqsadini etarli darajada baholay bilmaydi. Natijada axborot bozorida mavjud bo`lgan asosli, jiddiy, fikrlashga chaqiradigan, taraqqiyotga yordam beradigan axborotlarni etarlicha qabul qila olmaydi. Aksincha engil-elpi, shov-shuvli, hayotimizdagi mavjud o`tkinchi kamchilik va nuqsonlarni bo`rttirib ko`tarib chiqqan xabarlargaga berilib ketadi. Ularni tez qabul qiladi. Natijada jamiyatda yalpi o`rtacha kayfiyat, ozurda ruhiyat paydo bo`lishiga imkoniyat yaratiladi. Bunday vaziyatda milliy axborot tizimini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, uning faoliyatini takomillashtirish, ta`sir doirasini oshirish zarur bo`lib qolmoqda. Bu muammolarini hal etish uchun qo`ydagilarga e`tibor bermoq lozim:

- Ommaviy axborot vositalarida hozirgacha shakllangan til, uslub va ifoda usulini o`zgartirish lozim. Jozibador, ayni paytda hayotga yaqin, eng oddiy fuqaro qalbi va ruhiyatiga mos keladigan xalqchil ifoda usulini shakllantirish lozim. Boshqacha qilib aytganda, axborot makonini hayotga, odamlarga, ularning kundalik tashvishu izziroblariga, yangilanayotgan jamiyat muammolariga yuksak mahorat bilan moslashtirish kerak.

- Jamiyatni, uning har bir a`zosini axborot vositalariga qiziqishini orttirish yo`li bilan axborot orqali yuzaga kelayotgan ruhiy tanglik, ma`naviy ozurdalik, boshqacha qilib aytganda, buzg`unchi g`oyalarga ergashish kayfiyatining ommalashib ketishiga chek qo`yish lozim. **G`oyaga**

qarshi g`oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma`rifat tamoyilining ustivorligiga erishmoq kerak.

- Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta`minlash maqsadida fuqarolik jamiyatni institutlari - jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular so`zi va fikrining ta`sirchanligini oshirish kerak. Toki har qanday umummanshat va umumtaraqqiyot yo`lida aytيلاتган so`z har bir tinglovchi qalbiga kirsin, ongiga singsin. Uni rag` batlantirsin, ruhlantirsin, milliy yakdillikka, milliy birlikka da`vat etsin.

Albatta, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta`minlashning eng samarali yo'llaridan biri to`g`ridan-to`g`ri har qanday buzg`unchi g`oyalarga, jamoatchilik fikrini buzadigan xabarlargacha asosli tarzda qarshi tura bilish. Ikkinchisi tomonidan ayni ana shu qarshi targ`ibot mexanizmini samarali boshqarishni ta`minlash.

Hozirgi zamonda axborot tizimida shunday hodisalar mavjudki, unga qarshi chiqish u yoqda tursin, uni boshqarish, tartibga solish ham mumkin bo`lmay qolmoqda. Demak, bunday sharoitda eng maqbul va samarali usullarni ishlab chiqish zarur. Jumladan:

Birinchidan, jamoatchilik fikrini o`zgartirayotgan, chalg`itayotgan vayronkor axborotlar tashqaridan, o`ziga xos himoya qalqoniga ega bo`lgan makonlardan kelayotganligini nazarda tutib, axborot tarqatish borasidagi mojarolarga yo`l quymay, ularga yuksak siyosiy va kasbiy madaniyat orqali yondoshish. Befarqlik, sukul saqlash, kayfiyatiga barham berib, milliy oriyat, milliy nafsoniyat bilan bog`liq holdagi targ`ibotchilik imkoniyatimizni namoyon etish yo`lidan borish.

Ikkinchidan, shuni nazarda tutish kerakki, har qanday hujumkor va buzg`unchi g`oyaga qarshi o`z vaqtida, mo`ljalni aniq olib munosabat bildirishda ehtirolslarga berilmasslik, ortiqcha shov-shuvlarga yo`l quymasdan siyosiy vazminlik va bosiqlik, ayni paytda kuchli ta`sir o`tkazish usullarini o`zlashtirmoq lozim.

Axborot sohasida axborot xuruji qizg`in avj olgan bir paytda ayni ana shu xurujlar mohiyatini, uning manbalarini, rivojlanish omillarini, ilmiy til bilan aytganda konfliktogen jihatlarini chuqur o`rganish lozim. Buzg`unchi va hujumkor axborotlar maqsadi, iddaosi, ularning tagida yotgan manfaatlar qanchalik to`g`ri o`rganilsa, ularga shunchalik to`g`ri va ishonchli zarba berish mumkin bo`ladi.

XXI asr tsivilizatsiyasi oqibatida insoniyat hayoti axborot-psixologik tahdid kuchayotgan jarayonni boshdan kechirmoqda. Bu, ayniqsa, rivojlanish yo`liga chiqib olgan O`zbekistonday yosh mustaqil davlatlarga kuchli salbiy ta`sir o`tkizishi mumkin. Chunki har qanday asossiz, buzg`unchi g`oya o`tish davriga xos bo`lgan juz`iy kamchiliklar va o`tkinchi ijtimoiy-iqtisodiy nuqsonlarni bo`rttirib ko`rsatib, jamoatchilik fikrini chalg`itishi, uning istiqbolga ishonchini susaytirib yuborishi mumkin. Zotan, bugun jahon siyosati tobora madaniylashib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insoniylashib, davlatlararo manfaatlar ustuvorligi yumshayib borayotgan bir paytda

ommaviy qirg' in qurollardan foydalanish, termo-yadro xavfini kuchaytirish, atom, vadorod, turli biologik, bakteriologik va kimyoviy asiluhulardan foydalanish ibtidoiy hodisaga aylanib qoldi.

Millatlarini yo'q qilish, ularning ildizini qirqib tashlash, milliy xususiyatlari, an`analari va urf-odatlarini barbos etish yo'li bilan mamlakatlarni zabit etish tsivilizatsiyaviy hodisaga aylandi. Bunday maqsadni amalga oshirishda axborot tizimidan foydalanish keng avj olib bormoqda. Mustaqil O'zbekiston esa ana shu jarayonda o'zining yangidan-yangi imkoniyatlarini, aqliy salohiyatini, o'zini o'zi himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini namoyon etmoqda. Biroq bu etarli emas. Aniq natijalarga erishish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb o'yaymiz:

- insonning shaxs va fuqaro sifatidagi imkoniyatlarni ruyobga chiqarish va uni shakllantirish;

- insonning o'zini o'zi himoya qila olish instinktini, o'zini o'zi boshqarish salohiyatini shakllantirish;

- alohida odamlar, guruhlar, qatlamlararo munosabatlarni yana ham barqarorlashtirish;

- jamoalar birligini, umumiy xonodon - yaxlit mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissiini kuchaytirish;

- millatidan va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir shaxsning kelajak uchun mas'ulligini ta'minlash;

- kelib chiqishi mumkin bo'lgan mojarolar, kelishmovchiliklar asoslarini, yo'nalishlarini, ularning rivojlanish omillarini va dinamikasini doimiy tarzda, uzliksiz ravishda o'rGANIB borish.

Ana shu tarzda, albatta, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning O'zbekiston tajribasi takomillashib bormoqda. Bu bevosita axborot xuruji avj olayotgan, axborot tarqatish texnologiyalari tobora takomillashib, uning usul va uslublari yangilanib borayotgan bir paytda O'zbekiston ayni ana shu tsivilizatsiyaviy jarayonning eng samarali, eng insonparvar usullaridan yana ham kengroq foydalanish imkoniyatlarini qidirmoqda.

Tayanch iboralar:

1. O'zbekiston - yagona axborot tizimining faol sub'ektiga aylanishi.
2. Axborot - O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliyl manfaat va umummilliyl taraqqiyot omili sifatida.
3. Milliy xavfsizlikni ta'minlash - axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimining yaratish zarurati.

4. Jamoat tashkilotlari - Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyatni institutlari - jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular so'zi va fikrining ta'sirchanligini oshirishning zarurati.

Nazorat savollari:

1. G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining ustivorligi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Axborot sohasida axboroy xurujlardan qanday saqlanish mumkin?
3. Mustaqillik yillarda axborot texnoldogiyalari borasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
4. **Axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustivorligiga qanday erishish mumkin?**

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti,1996 yil
- 2.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti,1997 yil
- 3.Karimov I.A. «Ma'nnaviy yuksalish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti,1998 yil
- 4.Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-son
- 5.Karimov I.A. «Olloq qalbimizda, yuragimizda»Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.
- 6.Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000 yil.
- 7.Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari
- 8.«Iqtisodiy va informatsion havfsizlik zamonaviy muammolar» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to'plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma'sul M.M.Baxadirov.T.JIDU,2006.-137b.
- 9.YArochkin.V.I. Informatsionnaya bezopasnost'.Uchebnik dlya studentov VUZov.M..Akademicheskiy proekt Fond «Mir»,2003.-640s.
- 10.Informatsiya.Diplomatiya.Psixologiya.M.:«Izvestiya»,2002.616s

11.V.I.Xozikov. *Informatsionnoe oružje Sankt-Peterburg*. Izdatel'skiy Dom

«Neva», Moskva Izdatel'stvo «OLMA-PRESS Obrazovanie», 2003.

12.Lopatin V N *Informatsionnaya bezopastnost' Rossii*:Chelovek. Obshestvo. Gosudarstvo Sankt-Peterburg. Izd. MVD Rossii i Sankt-Peterburgskogo universiteta (Fond «Universitet»).2000.

13.Natsional'naya bezopastnost': Informatsionnaya. Sostavlyayushaya

V.Eremenko,YU.I.Kovalenko i dr.;pod red.V.V.Eremenko.-M.: MOSU,2000.-331s.

7-mavzu: Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning vazifalari, asosiy faoliyat yo'nalishlari va uslublari.

Reja:

1.Axborot sohasining rivojlanish tendentsiyasi.

2.Axborot-psixologik xavfsizlik siyosiy mojarolarning oldini olish vositasi sifatida.

«Axborot» tushunchasi bugungi kunda global mohiyat kasb etmoqda. U inson tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, yaxlit insoniyat hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy goh ijobjiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositagą aylandi.

Aslini olganda axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalaydigan barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo'lgan. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani «aloqa» va «boshqaruv» tushunchalari bilan birga keng qo'llanilishiga olib keldi. Hozirgi vaqtida axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohani - informatika sohasini tashkil etadi. Bu lotinchada tanishtirish, tushuntirish, sharq tillarida esa xabar, axborot ma'nosini bildiradi.

Axborot sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining shiddat bilan rivojlantirilishi komp'yuterlarning yaratilishiga va kishilik hayotining turli sohalarini komp'yuterlashtirishga olib keldi. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda g'oyatda tezkorlik bilan o'sib borayotgan «Axborotli jamiyat» nazariyasini maydonga keltirdi.

Komp'yuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ysi. Axborot olish, uni ishslash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvishlar tug'dirmoqda. CHunki hozirgi zamон komp'yuterlarining eng so'nggi avlodи har birining protsessorida 80-100 million tranzistor bo'lib, har soniyada ikki milliardgacha vazifani

bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli xohlagan kishi l'r yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o'rnatishi, muammoni lahzalarda hal etishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiy me'yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdag'i insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr tsivilizatsiyasi axborot xuriji, informatsion-psixologik urush qiyofasida o'zini namoyon etmoqda.

Insoniyatning kelajakdag'i taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, axborot texnologiyasi mohiyati, uning taraqqiyoti, inson va insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazishi omillarini chuqur o'rghanishni taqozo etadi. Bular quyidagilarda ko'rindi:

Birinchidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq holda yo'lga quyish, yo'naltirish. Umummanfaat atrofida birlashtirish, jama'a va jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, insoniyat hayotini saqlashda mas'ullik, uning taqdiriga taqdirdoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchidan, turli fe'l-atvorga, tabiatga ega bo'lgan, o'z manfaati ustuvorligiga intilayotgan siyosiy sub'ektlar o'trasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash. Urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tish, davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishda sog'lom g'oyalarga tan berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti cheksiz darajada rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot yo'liga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks xolda g'ayriaxloqiy va g'ayriinsoniy kayfiyatdagi fuqaro qudratli texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorizm, narkobiznes, diniy eksterimizm singari global fojealarini boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya-kredit tizimini izdan chiqarishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyasining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'laturkis inson hayotiga tadbiq etish, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamонави va samarali boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarda yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda «**shaxs-jamiyat-davlat**» aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash bir mucha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdorbida yashash kabi murakkab, ziddiyatlari vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson

sifatida tabiiy-biologik kumolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni **tahlil etadi**. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi va ana shu tahtillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada o'z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini egzulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan «**shaxs-jamiyat-davlat**» mutanosibligiga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yana ham oshadi.

Umuman olganda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi qanday paydo bo'ldi? Uning hayotiyligi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada? Ana shunday savol tug'ilishining o'zi muammoning dolzarbligini va o'ta keskinligini ko'rsatadi. Bizningcha axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi quyidagi larda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga **ma'naviy-ruhiy ta'sir, buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor maskulalarning mavjudligidan** kelib chiqadi.

Ikkinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralar ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni **genotsidga** olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlar saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazulga yuz tutishi muqarrar.

To'rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik xavfsizlik muammoysi yana ham keskinlashib qoladi.

Beshinchidan, mazkur atamaning mohiyati shundaki, u inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq bo'lgan global masalalarni ham qamrab oladiki, natijada hozirgacha mavjud bo'lgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg'unchisi yoki, aksincha, eng tashabbuskori bo'lib qolishi muqarrar. Bu holatni xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham xavfliroq mohiyat kasb etadi. Bunday

paytda ko`proq an`anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi. YA`ni, **sharqona munosabatlar ilmi**, mulohazalilik, mushohadalilik, har qanday voqeа va hодисаларга aql-idrok yo`rig`i bilan yondosh tamoyili ustivor bo`lmog`i lozim.

Axborot siyosatini tig`iz axborotlashgan jamiyat shakllanayotgan bir paytga hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib yangilash, modernizatsiyalash zarur.

Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot-psixologik hurujdan ishonchli saqlash, qat`iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi.

Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya qilinayotgan jamiyat uchun yangi tahdidlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Demak, tahdid qancha ko`p bo`lsa, qurquv, xadik va ishonchszizlik shuncha ko`payadi. Ana shunday ma`naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo`naltirib, boshqarib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ma`lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo`lida unumli foydalanish, uni boshqarish, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o`zini o`zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma`naviy-ma`rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Jamiyatni boshqarish, hozirgi zamon me`yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta`minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarur. Jumladan, siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzbek bog`liq bo`lgan yo`nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topishni, bevosita hokimiyat va unga ishonchni, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta`minlashda fuqarolar yakdilligini, ma`naviy va g`oyaviy jihatdan birligini ta`minlashni taqozo etadi.

Jamiyat shu darajada shakllanishi lozimki, uning a`zolari tig`iz axborotlar bozoridan umummilliyl manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliyl manfaatga daxldor bo`lgan qadriyatga aylanmog`i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta`sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo`ravonlik va urushni targ`ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeiga, obro`siga va sha`niga salbiy

ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasiniy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-rubiy me'yordari vujudga keladi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma'naviy-axloqiy mezonga nylanndi etkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyat sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unda xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy savyasiga, kasb mahoratiga va eng muhimmi fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezoni va asosiy tayanchi - millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usi!

Albatta, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos asoslari bor. Bular:

Birinchidan, tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlanganlik. Zamona viy texnika va texnologiyalar bilan etarli darajada qurollanish.

Ikkinchidan, mustahkam moddiy-moliyaviy asoslarga ega bo'lish. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan soha xodimlari moddiy manfaatdorligini oshirish.

Uchinchidan, zamona viy axborot texnologiyalarini boshqaradigan, undan samarali foydalana oladigan, zamona viy bilimlarga ega bo'lgan, har tomonlama keng fikrlaydigan qobiliyatli kadrlarni tayyorlash.

Demak, axborot xuroji tobora avj olib borayotgan, **yakka tartibda** har bir fuqaro, har bir inson ongiga kuchli ta'sir o'tkazayotgan, **keng miqyosda** olganda esa jamiyat taraqqiyoti va millat taqdirlini hal qilishga qodir bo'lgan, **global miqyosda** esa butun insoniyat hayotini kafolatlaydigan, uning taraqqiyoti yoki tanazulini belgilashga qodir bo'lgan tig'iz axborot tizimini boshqarish, tartibga solish, undan foydalinish me'yordarini ishlab chiqish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Tayanch iboralar:

1. Kibernetika -kelib chiqishi va rivojlanishi.
2. Axborotli jamiyat - nazariyasining mazmun va mohiyati.
3. Axborot texnologiyasi - mohiyati, uning taraqqiyoti, inson va insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazish omillari.
4. Axborot texnologiyasi - beqiyos imkoniyatlari, ulkan qudrati, to'la-t'yikis inson hayotiga tadbiq etilishi.

Nazorat savollari:

1. Axborotlashgan jamiyatda «shaxs-jamiyat-davlat» aloqadorligi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi qanday paydo bo`ldi?
3. Axborot-psixologik xavfsizlikning hayotiyligi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada?
4. Axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralar ko'rilmasa sizningcha oqibati qanday bo`lishi mumkin?

Adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
- 2.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil
- 3.Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida»,, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil
- 4.Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-soni
- 5.Karimov I.A. «Olloh qalbimizda, yuragimizda» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.
- 6.Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000 yil.
- 7.Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari
- 8.«Iqtisidiy va informatzion havfsizlik zamonaviy muammolari» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to'plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma'sul M.M.Baxadirov. T.: JIDU, 2006.-137b.
- 9.YArochkin.V.I. Informatsionnaya bezopasnost'. Uchebnik dlya studentov VUZov.M..Akademicheskiy proekt Fond «Mir»,2003.-640s.
- 10.Informatsiya.Diplomatiya.Psixologiya.M.:«Izvestiya»,2002.616s
- 11.V.I.Xozikov.Informatsionnoe orujie.Sankt-Petburg.Izdatel'skiy Dom «Neva»,Moskva.Izdatel'stvo «OLMA-PRESS Obrazovanie»,2003.

12.Lopatin V.N.Informatsionnaya bezopastnost' Rossi i Chelovek. Obshestvo. Gosudarstvo
Sankt-Peterburg Izd MVD Rossi i Sankt-Peterburgskogo universiteta (Fond
«Universitet») 2000

14 Natsional'naya bezopastnost': Informatsionnaya. Sostavlyayushaya
V V Eremenko,YU.I.Kovalenko i dr.;pod red.V.V.Eremenko.-M.: MOSU,2000.-331s.

8-Mavzu. Ochiq ommaviy axborot tizimi sharoitida shaxsnинг psixologik о’зини о’зи himoyalashi.

Reja:

1. Shaxs ruhiy kechinmalarining ijtimoiy borliq qadriyatlariga bog’liqligi.
2. Shaxs ongida g’oya va fikrning paydo bo’lishi. Maskura va psixologik xavfsizlik muammolari.
3. Ochiq axborot kommunikatsiya tizimida insonning axborot tahidilarini baholash va xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari.
4. Turli axborot-psixologik vaziyatlarda shaxsnинг ijtimoiy xulqi.
5. Shaxsnинг ma’naviy-axloqiy takomili va o’zini-o’zi himoya qilish va boshqarish imkoniyatlari.
6. Ta’lim bilan qamrab olinmagan aholiga ziyolilar orqali sog’lom g’oyalarni etkazish usullari.

1. O’z vaqtida Hindistonning taniqli siyosiy arbobi Maxatma Gandhi shunday yozgan ekan: «Men yuymning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o’tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo’lib, xonardonimni ag’darto’ntar qilib, o’zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman». Bu so’zlarni bugungi informatsion xurujlar va turli xil ma’lumotlarning turli yo’llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e’tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobjiy ta’siri jarayonlari ma’nosida ham qo’llash mumkin. Zero, dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bermalol egallab, internetdan bermalol foydalinish imkoniyatiga ega bo’lgan O’zbekistonga ham yaxshi, ham yomon ta’sirlar, xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsnинг o’zini-o’zi psixologik jihatdan salbiy ta’sirotlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Yaqinda «Internet» sahifalari amerikalik siyosatshunos olim Patrik B’yukenenning «Smert’ Zapada» nomli kitobi paydo bo’ldi. e’tiborga molik jihat shuki, katta hajmdagi bir kitobning so’z boshisidayoq, muallif yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiringa aloqador bo’lgan voqealarini, G’arbning «taqdiri»ni jamiat ma’naviyatidagi inqirozlarga, jumladan, oila va nikoh, tug’ilish va aholining tabiiy o’sishi borasidagi inqirozlar tahliliga bag’ishlagan. Ming taassuf va afsus bilan u «Evropa «amerikacha» madaniyatni qabul qilib, bugun uning hayot tarziga singib ketganligiga qarshilik ko’rsatishga qodir

emasligini e'tirof etadi. B'yukencnning sikricha, sanoati va yuqori texnologiyalari rivoj topgan jamiyatda odamlarning birdan boyib ketish, to'kin hayotga erishishga bo'lgan egoistik intilishi ularning asl qadriyatlarga, jumladan, oila va nikohga, yoshlar tarbiyasiga bo'lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqardi. Bu holatni u gedonistik psixologiyaning asosi deb baholab, uning oqibati jamiyatda qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligini ochiq e'tirof etadi.

Gedonizmnning ma'nosи shundayki, shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustivor bo'ladi. To'g'ri, aslida insonning to'q va farovon hayotga intilishi, boy-badavlat yashashni xohlagani ayb emas, lekin bunday to'kinchilik insoniylikka qarshi bo'lishi mumkin emas. Muallifning tashvishi va uni xavortirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o'zgarishlar evropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarda ifodalanadi. Masalan, bugungi Evropada tug'ilayotgan bolalarning har uchtaidan bittasi nikohsiz tug'ilayotganligi, tug'ilishning keskin kamayib ketganligini, umuman ayollar o'zidan sog'lom surriyod qoldirishni istamayotganligi, mablag'i etarli bo'la turib, farzand tug'ilishi va uni tarbiyalashga ketadigan mablag'ni qizg'anayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Umuman G'arb ayollarining aksariyati turmushga chiqib, o'zidan munosib surriyod qoldirish niyatidan tobora uzoqlashib bormoqda.

Olimlarni mavjud ahvolni ijobjiy tomonga o'zgartirish uchun farzand tug'ilishi uchun davlat tomonidan ajratiladigan nafaqlarning, suyunchi pullar miqdorining orttirilishi, onalar uchun alohida imtiyozlarning joriy etilishi yoki bola soni ortgani uchun oilaga ko'rsatiladigan muruvvat ayollarni sog'lom oila qurib, unda sog'lom farzandlarni tarbiyalashga undarmikin, degan savol o'yantirmoqda va mulohazalar mantig'idan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, zamonaviy evropaliklarni bunday imtiyozlardan ko'ra, mansab pog'onalaridan ko'tarilib, o'z manfaatinigina o'ylab yashash ko'proq qiziqtiradi. Chunki zamonaviy G'arb yoshlari, xotin-qizlar uchun bu kabi imtiyozlar bola tug'ilishi va bu bilan bog'liq tashvishlar oldida hech gap emas. Shu kabi gedonistik psixologiya bizning yoshlарimiz ongida paydo bo'lmasligi, ochiq axborotlar makonida bemalol turli ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati paydo bo'lgan hozirgi sharoitda ularni ezgu maqsadlarga yqnaltirish, ularda sog'lom dunyoqarash, ertangi kunga ishonch, sobit g'oya, sog'lom hissiyotlar, el-yurt oldida, oilasi va yaqinlari oldida insoniy javobgarlik va yuksak mas'uliyat hislarini tarbiyalash millat manfaatiga bevosita aloqador vazifamizdir.

2. Shaxs ongida g'oya va fikrning paydo bo'lishi. Maskura va psixologik xavfsizlik muammolari.

Jahon hamjamiatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab etishiga keng imkon yaratmoqda. Tobora kengayib borayotgan xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahrmand bo'lish uchun qulay zamin yaratmoqdaki, bu o'z navbatida o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini tez o'rGANIB olish kabi iqtidorini ro'yobga chiqishiga, xorij mamlakatlarga borish, ular bilan aloqalar o'rnatish, dunyo standartlari bo'yicha oliy o'quv yurtlarida

tahsil olish imkonini berdi. Anha shu aloqalari tulayli milliy mehmonnavozlik va sahovat an'analarini yanada rivojlandi.

Bunday aloqalarning kengayishi haqiqiy ma'naviy va madaniy qadriyatlarini munosib baholash imkonini berdi. Hozirgi yoshlar ham, ularning ota-onalari ham uchragan kinoni ko'rib, duch kelgan maza-matrasni yo'q kitoblarni o'qib ketayotgani yo'q. Ataylab yurtimizga olib kelinayotgan g'arbning sun'iylashtirilgan san'atidan, «keng iste'mol»dagi madaniyatidan norozilik sezilib turibdi. Bunday mahsulotning ilgarigi «man etilgan ne'mat»ga xos «dazzati», jozibadorligi deyarli qolmagan. Hozirgi kunda xorijning madaniy qadriyatlaridan foydalananishga ancha jiddiy va tanlab yondashish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Lekin ochiq ommaviy axborot vositalari orqali tinimsiz ma'lumotlar quyulib kelayotgan sharoitda aynan hali ongi shakllanib ulgurmagan yoshlar uchun tahdid ham, ataylab yushtirilayotgan mafkuraviy tajovuzlar ham bor.

Shunday sharoitda Prezidentimiz Islom Karimovning fikrlari biz uchun hamisha dalda bo'ladi: «Eng muhim, qalbimizda g'ururimiz, bilagimizda kuchimiz bor ekan, biz tinchlikni himoya qilishiga, unga xavf solayotgan kuchlarga qarshi kurashishga, qaddimizni tik tutib, boshimizni baland ko'tarib yashashga qodirmiz. Bizni qo'rqiymoqchi bo'layotgan g'alamislar shuni bilib qo'ysinki, biz hech kimga bosh egmaganimiz va hech qachon bosh egmaymiz. Bunda bizga milliy g'oyamiz va mafkura g'oyaviy tayanch va asos bo'ladi (2001 yil 10 oktyabr).

Zero, milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyo da uning taraqqiyot yo'lini yoritib beradi. Iстиqlol mafkurasi ko'pmillatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, «Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farvonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nun sharifi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalari tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug' vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajodolarimizning bebafo merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiha erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariiga da'vat

qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

Davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari va istiqbolli g'oyalaridan kelib chiqib, hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida *mafkuraviy immunitet* hosil qilish muhim va dolzarb ahamiyat kash etgan vazifalarimizdandir. Bu ishni bamicoli niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim.

Г3. Ochiq axborot kommunikatsiya tizimida insonning axborot tahidilarni baholash va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari. Shaxs turli mafkuraviy tahidlardan qanday yo'llar bilan saqlanishi mumkin?

Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo egotsentrizm kabi tushunchalarga izoh berish darkor. egotsentrizm so'zi lotincha «*ego*» - *men* va «*centrum*» - *doira markazi* so'zlaridan olingan. Ma'nosи - o'z fikr-o'yлari, manfaatlari doirasida qotib qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o'z bilimlari va o'zgalariga munosabatini o'zgartira olmasligini bildiradi. Psixologiyada egotsentrizmnинг bir qancha turlari - bilishga oid, axloqiy va kommunikativ egotsentrizmlar farqlanadi. Oxirgi - boshqalarga biror xil ma'lumot berish jarayonida ularning fikri bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslikda namoyon bo'ladi. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlarning mualliflarida aynan shu kabi egotsentrizm kuzatiladi va ular o'zlariga o'xshash faqat o'z manfaatinigina ko'zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo'lishi uchun shaxsda mustaqil fikr bo'lishi lozim.

Demak, ochiq axborotlar tahdidi sharoitida yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar bo'lishga, erkin fikrli bo'lishga o'rgatish orqali ularda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash eng dolzarb vazifalardir. Zero, o'rgatish bir tomonlama jarayon bo'lmay, u «pedagog-tarbiyalanuvchi» muloqoti tizimida ko'proq *tarbiyalanuvchining fazilatlariga bog'liq*. Bunday murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobat olish zarurati ijtimoiy psixologiyada isbotlangan. Masalan, agar o'quvchi yoki talabalarni yaxlit guruh deb oladigan bo'lsak, ularning barchasi bilan bir vaqtida, bir xil effekt bilan ishlash va shu orqali ularning mustaqil tafakkurini o'stirish, sog'lom e'tiqodini tarbiyalashning ilojiyi yo'q. Ikkinchidan, bir guruh talaba yoki o'quvchi uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham ayanan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi mumkin.

Demak, bugun ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan, lekin ming afsuski, o'z mustaqil fikriga ega bo'Imaganlar bilan ishlashda quyidagilarga e'tiborni qaratish darkor:

Birinchidan, xulq-atvordagi xatoliklar eng avvalo fikrlash tarzidagi xatoliklarning oqibati bo'lgani uchun talabalarning negativ fikrlash tarzining sxemasini o'zgartirish lozim.

Ikkinchidan, fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatish uchun pedagoglar o'zlarining tushuntirish uslublarini, tarbiya metodlarini o'zgartirishlari lozim. Ya'ni, ilgari, yuqori tonlarda, direktiv ohangda,

«katta roli»da talaba bilan muloqot qilgani pedagog, endi kerak bo`lsa, «tengma-teng», demokratik ohangda, bosqichmu-bosqich xatti-hurakatini birlashtida tahlil etishga o`tishlari lozim.

Uchinchidan, o`quvchi-talabuning o`z-o`zini idrok qilishini, o`ziga bo`lgan bahosini o`zgartirish, ya`ni, talabani yobiy ishlarga yo`naltirish orqali o`ziga bo`lgan bahosini o`zgartirishga erishish kerak.

Nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, o`quvchi ijobiy tajriba orttirsing, ya`ni, o`ziga, oilasiga yoki sindosh do`stlariga, matabiga manfaatli ish qilib, olqish olsin, ya`ni, ularni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim.

Demak, ta`lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim, aks xolda uning ongi tayyor shablolar, stereotiplarga shu qadar o`rganadiki, ular oxir-oqibat har qanday bid`at yoki yet g`oyalarga ergashib ketaveradigan bo`lib qoladi. Ya`ni, darsni tashkil etishning noan`anaviy usullariga keng yo`l ochish, darslarda o`quvchilar bilan interaktiv muloqotini tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishi va mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

Psiyologik manbalardan yana shu narsa ma`lumki, yoshlar mustaqil fikrlashlari uchun ta`lim jarayonining o`zida joriy etilgan tartiblarda byurokratiyanı *minimallashtirilishiga* erishish kerak. Chunki eski ta`lim tizimi o`qituvchining aytganini, u yozgan ma`ruza matnini aynan ko`chirib yozib kelish yoki ayтиб berish miyani avtomatik ishlashga, zombi kabi yodlangan bir xil qolipda bo`lishga o`rgatadi, bunday miyada albatta o`ziga xos vakuum hosil bo`ladiki, bu vakuumga keyinchalik boshqa yet g`oya va tushunchalar juda tez singadi, chunki miya deyarli tormozlangan, har qanday boshqacha xabar uning miyasiga oson kirib oladi.

Demak, davrimiz pedagoglardan, rahbarlardan o`z ish uslublarini o`zgartirish, muloqot qobiliyatlarni takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu uning ta`sir ko`rsata olish xislatining samarali bo`lishini talab etadi. Bu esa bevosita yoshlarda mustaqil, erkin tafakkurning rivojlanishi uchun real zamin bo`ladi.

O`qituvchilar yoshlarni turli yomon ta`sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan foydalanishi va bunda axloqiy ta`sir ko`rsatish texnologiyasidan oqilona o`z faoliyatida joriy eta olishi lozim bo`ladi. Axloqiylikka o`rgatish, axloqan va ma`nan yuksak bo`lish, umuman tayziqni, kuch ishlatishni rad etadi. Ma`muriy tayziq yoshlarni yet ta`sirlardan asrab qololmaydi. Buning yagona yo`li - o`quvchi bilan munosabatda gumanistik tamoyillarni joriy etish, erkin fikr almashinish muhitining yaratilishidir. Zero, mamlakatimizda qurilayotgan erkin fuqarolik jamiyatining asoschisi Islom Karimov, bu ezgu ishlarni amalga oshirishda hamisha yoshlarga, ularning mustaqil fikrli, iqtidorlilariga ishonadilar.

4. Turli axborot-psixologik vaziyatlarda shaxsning ijtimoiy xulqi. Psixologik himoya tushunchasi. Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida yoshlar ongiga ta`sir etayotgan yet g`oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini o`rganish lozim. Ijtimoiy xulqda ko`zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri *tashvishlanish, nimalardandir cho`chish* va shu tufayli *ijtimoiy munosabatlardan o`zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo`lishidir*. Chunki agar psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqiladigan bo`lsa, bu - shaxs

*ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo`*tadillikni asrash uchun o`zidagi xavotirlanish, qo`rguv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo`lishga intiladi. Psixologik himoya - shaxsni turli salbiy ta`sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi.* Shunday holatlarda odam odatda shaxslararo munosabatlarda o`zini boshqacharoq tutadigan bo`lib qoladi. Psixologlar himoya mexanizmlariga odatda quyidagilarni kiritadilar:

- ochiq his-kechinmalarni *bosish, ko`rsatmaslikka urinish;*
- *rad etish*, ya`ni noma`qul ma`lumotni ochiq rad etish, qo`shilmaslik;
- *proektsiya* - o`zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob`ektlarga ko`chirish orqali paydo bo`lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;
- *regressiya* - ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo`lib o`tgan qaysidir vogelarga qaytish, ularning yaxshi ya`ma`qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o`zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;
- *ratsionalizatsiya* - mulohaza va fikr yuritish orqali o`zida himoya instinktlarini paydo etish;
- *konversiya*- muloqotdagi qandaydir to`sishlar yoki bar`erlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo`llash, masalan, xavotirli informatsiyani yumoristik bilan almashtirish yo`li.

5. Shaxsning ma`naviy-axloqiy takomili va o`zini-o`zi himoya qilish va boshqarish imkoniyatlari.

Ochiq axborot xurujlari vaziyatida shaxsning o`zini o`zi himoya qilishini *boshqarishda* ayrim jihatlarga alohida e`tibor berish lozim. Avvalo, har bir inson uchun *mustaqil fikr* zarurligini ta`kidladik. Mustaqil fikrga ega bo`lgan insongina o`ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma`lumotning mohiyatiga etishi va unga nisbatan himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlar turli yet va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun ularda *milliy g`ururni* tinimsiz tarbiyalash va bunda har bir fan predmeti va tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalananish zarur. Masalan, 2006 yilning o`zida nishonlangan qator tantanalar, jumladan, Ma`mun Akademiyasi va uning nima uchun aynan O`zbekiston xududida tashkil etilganligiga yoshlar e`tiborini qaratish va ularni ochiq fikr almashinuviga chorlash ularda milliy g`ururni uyg`otadi.

Milliy g`ururning ahamiyati shundaki, bunday sifati bor inson boshqalarga qul bo`lishni, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo`lmaydi.

Uchinchidan, milliy g`ururi bor insonda iymon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog`liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida dashtirmaydigan «kompas» rolini o`ynaydi. Olimlardan biri ta`kidlaganidek, «Internet» shunday o`rmonki, unda kompassiz yurib bo`lmaydi».

To`rtinchidan, oliy o`quv yurtlarida professor-o`qituvchilarining *avtoritetini*, ular aytadigan *har bir so`zning aniq mo`jalli bo`lishini* ta`minlash zarur. Domla aytadigan fikrlardan biri - axborot qanday bo`lishidan qat`iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo`lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi

kerak. Buning uchun yovuz niyatlari yot q oynalarni targ'ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular say'i-harakatlarining oxir-oqibati nima bilan tugashini ochiq aytaverish lozim.

Shunday qilib, axborot xurujlariga qarshi turishning psixologik yo'llarini har bir murabbiy va talubaga etkazish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

a) uslida ataylab ta'sir etishga mo'ljallangan xabarni shaxs darrov qabul qilmaydi. Chunki, birinchidan, unda ilgaridan psixologik himoya mavjud va ikkinchidan, har qanday yangi narsaning singib ketishida muayyan axborot to'siqlari ham bo'ladi.

b) bunday sharoitlarda «uchinchini shaxs ta'siri» effekti ro'y beradi (effekt tret'ego litsa). Uning ma'nosini - «bu xabarga hamma ishonaversin, menga ta'sir qilmaydi» deb o'ylaydi shaxs, lekin ma'lum ma'noda shu fikr ta'sirida u axborot ta'sirida tushib bo'lgan bo'ladi. Xaligi fikrni o'zi uchun har ehtimolga qarshi hayolidan o'tkazadi;

v) Ishontiruvchi chaqirqlarga, masalan, reklama orqali etkazilayotgan xabarlarga yosh bolalar juda o'ch bo'ladi va aynan ular ota-onani ko'ndiradi. 90% onalar aynan reklama qilingan tovarlarni bolalariga xarid qilib olib beradi. Xuddi shunday «Internet»ga ulanish, uyida zamonaviy kompyu'terga ega bo'lish fikri ham bolalardan chiqadi, bunga ota-onani ko'ndiradilar ham. Bu ma'noda yoshlarni eng himoyalanganmaganlar toifasiga kiradi.

g) xabarning asl maqsadi aslida ma'lumot berish emas, balki *ishontirish* ekanligini tushunish kerak. Odamning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning turli xabarlarga ishonqiramay munosabatda bo'lishi ham yuqori bo'ladi. Lekin xabarga ishonqiramay qarashimiz bizning uni qabul qilishimiz yoki qilmasligimizni bildirmaydi. Ya'ni, agar biz ochiq yoshlarga «bu axborot manbaiga ishonmanglar», «Ular ataylab yolg'on ma'lumot bermoqda» desak, bu narsa ularning shu turli axborotni qabul qilmasliklarini kafplatlamaydi. Lekin «ogohlantirilgan odam qurollangan, muhofazalangan bo'ladi» degan tamoyildan kelib chiqib, birinchi ogohlantirishdan so'ng, yana o'z fikrimizni faktlar bilan asoslasak, ulardagagi immunitet kuchliroq bo'ladi. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ogohlantirish muddatları ham rol' o'ynaydi. Masalan, eksperimentlarda bir hafta avval ogohlantirishning ta'siri uzoqroq muddatdan ko'ra kamroq ekanligi ma'lum bo'lgan. Yoki uuda xoli, komfort sharoitda qabul qilingan ta'sir bilan odamlar orasida, ko'pchilikning ichida yomon xabarni qabul qilish farqlanadi, chunki yolg'iz uydagi ta'sir skeptizmni kuchliroq namoyish etishi kuzatilgan.

Ikkinci tomondan, bevosita axborotni qabul qilish arafasidagi ogohlantirish qarshi argumentlar ishlab chiqish vaqtini kamaytiradi, undan sal avvalroq ogohlantirish esa inson miyasida ma'lumotni qayta ishslashga imkon beradi.

d) Tanish narsalar haqida ma'lumotga ega bo'lgan odamni ishontirish tezroq amalga oshadi. Lekin samarali taktikalardan biri - axborot kanallari orqali berilayotgan ma'lumotlarni ochiqchasiga jamiyat manfaatlariga zid ekanligi, ularningadolatsiz, xudbinlarcha uzatilayotganligi, nimalaridir qonunga xi洛f ekanligini qayd etish mumkin. Ya'ni, tarbiyachi, o'qituvchi ochiq tarzda o'z noroziligini bayon etish, targ'ibotchi fikriga qarshi ekanligini aytishi mumkin. Bu holat ham auditoriyani o'ylashga majbur etadi.

Yana o'ziga xos strategiyalardan biri - ochiq axborot manbalaridan ketgan ma'lumotni, undagi ayrim faktlarni ochiq tan olishdir. Masalan, darhaqiat, bizda dasrliklarning sifati talab darajasida emasligini, mahallalarda nochor va notinch oilalar xanuz mavjud ekanligini va x-zo. Masalan. Agar O'zbekistonga qarshi bo'xtonlar bo'lsa, ularning ayrimlari «Ha, darhaqiqat bularni biz ham bilamiz, Sizlar bilarmidинглар?» deb auditoriyani tinchlantirish va aniq dalillar bilan kamchiliklarning bartaraf etilishi yo'llari xususida o'z fikrini aytish.

Bundan tashqari, o'qituvchiga xos bo'lgan usullardan biri - o'z qarashlariga nisbatan ikkilanish pozitsiyasi borligi ochiq tan olish: «balki men nohaqdirmam, lekin bu masalada shunday asoslarim bor edi..., deb asoslarni keltirish.

6. Ta'lif bilan qamrab olinmagan aholiga ziylolar orqali sog'lom g'oyalarni etkazish usullari.

Milliy g'oya mamlakatimizda istiqomat qilayotgan salkam 27 million aholining maqsad-muddaovalari, istiqbolda tinch va farovon yashashiga kafolat beruvchi g'oyaviy kuch bo'lib, u millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildir. Bugungi kunda milliy g'oya, milliy masfura targ'iboti bilan keng jamoatchilik shug'ullanmoqda, ayniqsa, ta'lif tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o'quv jarayonlarida qo'llanilmoqda va yoshlarni o'z Vataniga sodiq, mard, fidoyi, yuksak ma'nnaviy fazilatlar egasi bo'lishga undalmoqda. Lekin mamlakatimizda ta'lif tizimi bilan qamrab olinmagan aholiga ham milliy g'oyani singdirish zarurati bor. Ta'lif bilan qamrab olinmagan aholi ongida milliy g'urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, xalq ishiga kamarbastalik psixologiyasini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardandir.

Milliy g'oya har bir fuqaroning oilasi, jamiyat, el yurt oldidagi burch va ma'suliyatini qaydarajada aks etayotganini belgilaydigan mezondir. Shuning uchun insonlarda mana shu e'tiqodni, ma'suliyatni kuchaytirish uchun targ'ibotning samarali usullarni qo'llash zarur. Targ'ibotning samarali kechishi uchun qanday omillarga murojaat etish kerak?

Targ'ibotning eng samarali yo'llaridan biri xalq ichiga faol kirib borish, ya'ni mahallalarda aholi bilan yuzma-yuz bevosita suhbatlar olib borish zarur. Davra suhbatlariga taniqli el-yurt ishonchini oqlagan olimlar, mehnat faxriyalarini taklif etib, insonlarda Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytirish mumkin.

Targ'ibotni samarali kechadigan jarayoni ta'lif tarbiyani oila insituti orgali olib borish ham o'z natijasini beradi. Inson dastlabki hayot haqidagi tasavvurlarini o'z oilasidan oladi. Mashhur rus yozuvchisi L.Tolstoy «Hamma tasavvurlarim 5 yoshgacha olgan taassurotlarim yig'indisidan iboratdir» degani bejiz emas. Chunki insoniyat ilk bora atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni jamiyatning asosiy o'zagi bo'lmissa oiladan oladi. Oilada yaxshi tarbiya topgan bola muktabda, mahallada, jamaot joylarida ham nojo'ya harakat qilmaydi. Pedagog A.S.Makarenko ota-onalarga qarata shunday degan edi «Sizning xulq-atvoringiz hal qiluvchi omildir. Siz bolani faqat u bilan gaplashayotganda unga biror narsani o'rgatayotganda yoki buyruq berayotganda o'rgataman deb o'yamang. Siz uni hayotizingizni har bir soniyasida, hatto, o'zingiz uyda yo'q chog'ingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz,

boshqa kishilar bilan qanday gaplashishingiz, qanday quvonishingiz va tashvishlanishingiz, do'stlarga va dashmanlarga qanday muomali qilishingiz, qanday kulishingiz, qanday gazeta o'qishingiz, bola uchun katta ahammiyatga ega Tovushingizdag'i ozgina o'zgarishni ham bola sezadi yoki his etadi, fikringizdagi burchu burilishlar ko'rinnas yollar orqali unga etib boradi». Demak, farzandlarga oilada ta'lim tarbiya berilayotganda ota-onalarning o'zlar ular uchun namuna, ibrat bo'lishlari kerak. Shuning uchun milliy g'oyani insonlar qalbiga va ongiga singdirishni eng avvalo oiladan boshlash kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni hamma oilada, mahallada, keng jamoatchilikka axborot tarmoqlari, notiqlik klublari, jamoat tashkilotlari orgali uzatish mumkin. Bizning ijtimoiy xulq-atvorimiz, xattiharakatlarimiz bizning ustavokalarimiz bilan belgilanadi. Targ'ibot va tashviqot ham ta'lim-tarbiyaning bir ko'rinishidir, agarida to'g'ri targ'ib qilinsa, insonlarni buzg'unchi g'oyalardan asraydi, ustavokalarini o'zgartiradi.

Ijtimoiy so'rovlar orgali jamoatchilik fikrini o'rganib, ularning bildirgan fikr-mulohazalari asosida maskuraviy targ'ibotni olib borish mumkin. Jamoatchilik fikrini o'rganayotganda asosan uchta omilga ahmiyat berish kerak. Birinchi omil- so'rovda ishtirok etayotganlarni mazkur so'rovdan *ijtimoiy manfaatdorligini*, ikkinchi omil- *bahs-munozaraga sabab bo'ladigan vaziyat*, uchinchi omil - ishtirok etayotganlar mazkur *fikrga nisbatan aniq fikrlari* bo'lishi kerak.

Targ'ibot va tashviqotning samarali usullaridan biri bu - *ommaviy axborot vositasidir*. Ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilik fikriga tez va kuchli ta'sir eta oladi. Chunki har bir oilada ommaviy axborot vositalari xabarlaridan foydalilanadi va insonlarning ma'lumot olish manbai bo'lgan bu vosita orgali xalqimizga milliy g'oyalarni singdirish qulayroqdir.

Biz har kuni ishonarli ma'lumotlarga boy bo'lgan xabarlarga duch kelamiz, ulardan unchalik muhim bo'limgan qismi ham ta'sir etishi mumkin. Biror bir xabar, g'oya insonning xulq-atvorini o'zgartirishi mumkin, bunda *psixologik ta'sir etishning* olti bosqichiga murojat qilish kerak:

1. Xabar, g'oya auditoriyaga berilishi kerak.
2. Berilgan xabar, fikr auditoriyaning diqqatini jaib qilishi kerak.
3. Auditoriya xabar, fikrnинг mohiyatini tushunishi kerak.
4. Berilgan xabardan yangi g'oya sifatida xulosa chiqarishi kerak.
5. Yangi g'oyani yodda saqlab qolish kerak.
6. Yodda saqlangan g'oyani o'zining xulq-atvorida qo'llay olishi kerak.

Urf-odatlar, milliy qadriyatlarimiz orgali ham xalqimizga milliy g'oyani targ'ib etish mumkin. O'zbek oilalarining o'ziga xos milliy qadriyatlari mavjudki, bu odatlar er kurrasining hamma erida ham topilavermaydi. Masalan, oddiy ovqatlanish madaniyatini olaylik. Hamma oila a'zolari jam bo'lgandan so'ng dasturxonga taom tortiladi, so'ng taomga birinchi bo'lib oilaning kattasi buva, buvi, ota ketma-ketligida taomga qo'l uzatiladi. Oddiy kundalik davom etadigan bu jarayonda ham kattalarni hurmat qilishga, sabr-qanoatlari bo'lishga undaladi.

Badiiy adabiyot orgali xalqimizga sabr-qanoat, hallollik, vatanparvarlik, sadoqat kabi fazilatlarni qalblarga singdirish mumkin. «Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga

sarflamaslik kerak» (Abdulla Qahhor). Mamlakatimiz olim va yozuvchi, shoirlarining asarlari milliy mcnitelititimizga mos g'oyalarga asoslanib, g'oya esa asarga mos va mutanosib tarzda yaratilishi kerak.

Yozuvchi A.Qahhor «Biror bir asar o'quvchida qanday ta'sir qoldirsa, uni qaysi yo'lga boshlasa, g'oyasi o'shanda» degan fikrni bildirgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda yoshlarni turli yot g'oyalarga berilib ketmasliklari uchun ularni ezgu g'oyalalariga undash kerak va bu g'oyalalar ularning maslagiga aylanishiga erishmoq lozim. Shundagina insonlarni turli buzg'unchi g'oyalardan saqlay olamiz.

Tayanch iboralar:

1. Gedonizm -mazmuni va ma'nosi.
2. Maskura - maskura va psixologik xavfsizlik muammolari.
3. Maskuraviy immunitet - uni hosil qilish muhim va dolzarb masala ekanligi.
4. Ochiq axborot - ochiq axborot kommunikatsiya tizimida insonning axborot tahdidlarini baholash va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari.

Nazorat savollari:

1. Yoshlarni turli yomon ta'sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan foydalanishning qanday ahamiyatga ega?
2. Psixologik himoya - shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qila oladimi?
3. Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan, lekin o'z mustaqil fikriga ega bo'limgan yoshlarni ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. egotsentrizm nima?

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
- 2.«Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild,
- 3.Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil.
- 4.Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil.
- 5.Zapasnik M. Loj' v politike //Filosofskie nauki. 1991. №8, str.98.
- 6.«Polis» jurnalı, Moskva, 1994 yil, 1-son, 42-bet.
- 7.Machiavelli H. Opere Scolte, 1973, R.8.

9-Mavzu: Jamoatchilik fikri va jamiyatning axborot-psixologik himoyasining ta'minlanishi.

Reja:

1 Jamoatchilik fikri va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni.

2 Jamoatchilik fikrini o'rganish va ijtimoiy fikrning shakllantirish mexanizmi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda favqulodda muhim ahamiyatga egadir. Axborot xavfsizligini samarali ta'minlash esa jamoatchilik fikri fenomenini chuqur anglashni taqozo etadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish ehtiyoji esa bir tomonidan, davlat va jamiyat tuzilmalarining demokratiya tamoyillariga nechog'li asoslanishiga, ikkinchi tamondan esa mavjud empirik manbalarni ilmiy analitik mushohadalash, nazariy qayta ishslash, sintezlash holatlariga bevosita bog'liq, holda shakllanadi. Ana shu ikki jihatlardan biror biri bo'lmasa jamoatchilik fikrini o'rganish ham uni demokratik uslublarda shakllantirish ham samarali kechmaydi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongdan ham davlat yohud tuzumming direktiv qarashlaridan ham, yoki alohida shaxs fikr-qarashlaridan ham farq qiladi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning hosilasi, jamiyat turli tabaqalarining fikr-qarashlari, munosabatlarining real va umumlashma ifodasidir. Jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy-siyosiy holat, turmush tarzi, iqtisodiy o'zgarishlar xususida umumiyligi yoki bir necha xil munosabatlarga, mavjud holatlarning kelib chiqish sabablari, harakatlantiruvchi kuchlari, muammoning echimiga xilof bo'layotgan omillar borasida esa mutlaqo qarama-qarshi hamda o'zgaruvchan qarashlarga ega bo'ladi. Jamoatchilik fikrining tez o'zgaruvchan tabiatini ham uni ijtimoiy ongning faol qismi sifatida xarakterlaydi.

Ayni chog'da, jamoatchilik fikrining o'zgaruvchanlik tabiatiga ta'sir o'tkazish uni muayyan me'yordarda ushlab tura olish hamda maqsadli shakllantirish davlat, jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash kafolati ham sanaladi.

Mamlakatda amalga oshirayotgan barcha islohotlar, maqsadli ijtimoiy o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi.

Shu boisdan, jamoatchilik fikrini xaotik asoslarda, yohud inertsiyon tarzda shakllanishiga yo'l qo'yish kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Tarixda sobiq sho'rolar hukumatining so'nggi liderlari tomonidan amalga oshirmoqchi bo'lgan qator loyihibar, ijtimoiy o'zgarishlar islohotining inqirozga yuz tutganligi fikrimizning dalili bo'la oladi. (masalan, qayta qurish dasturini amalga oshirish orqali sobiq siyosiy tuzum asoslarini mustahkamlashga urinish, Sibir daryolarini burish, anglangan extiyojlarini shakllantirish, alkogolizmga qarshi kurash harakatlari va x,k.)

Shu boisdan ham, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarini jamoatchilik fikrida qanday namoyon bo'layotganligi, uni qanday shakllantirish, ommani yangilanishlar ruhidagi tarbiyalash va eng muhim jihatlardan biri bo'lgan axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari yurtboshimizning diqqat-e'tiborida bo'lib kelayotganligi bejiz emas.

Yaqin o'tmishimizdan ma'lumki, sho'rolar davrida jamoatchilik fikriga hukumatning hech qanday e'tirozlarga o'rın qoldirmaydigan direktiv ko'rsatmalari, maxsus siyosiy-nazariy yo'nalishlar orqali uzuksiz ravishda ta'sir o'tkazilib kelinar edi. Buning uchun esa o'ziga xos ikki bosqichli ta'sir uslubi amalga oshirilar edi. Birinchi bosqichda vertikal ta'sir uslubi, ya'ni eng yuqorida eng quyi bo'g'lnlargacha davlat tomonidan rejalashtirilgan hukmron fikr tazyiqi tizimi tartiblarda mukammal dasturlar asosida anulga oshirilsa, ikkinchi boskichda gorizontal ta'sir uslublari ishga tushirilib, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim tizimi muassasalari, jamoat tashkilotlarida **«buyurtma»** qilingan siyosiy fikr alohida ijtimoiy qatlamlar ongiga muntazam ravishda singdirilar edi. Ana shu mexanizmn harakatga keltirish uchun esa davlat tizimi markazlashgan partiya va turli xil tashabbus guruhlari niqobi ostida muntazam ravishda faoliyat yuritib kelar edi.

Bugungi kunda ana shu uslubda, ya'ni jamoatchilik fikriga rejaviy tarzda bevosita ta'sir o'tkazish amaliyoti Xitoy, Shimoliy Koreya, Kuba, Iroq singari mamlakatlarda saqlanib turibdi. Ammo, rivojlangan Fapb va Sharq mamlakatlarda jamoatchilik fikrining bilvosita uslublari keng qo'llanilib kelmoqda. Bu uslub demokratiya tamoyillariga asoslangan bo'lib, asosan ommaviy axborot vositalari, reklama, norasmiy liderlar ta'siri, shou dasturlar va boshqa omillar vositasida amalga oshiriladi.

Fuqaroviylar jamiyatda insonning o'z salohiyatlarini yuzaga chiqazish hamda o'z-o'zini himoyalash extiyoji uchun tabiiy ravishda muayyan ijtimoiy-siyosiy guruhlarga a'zo bo'lishi taqoza etiladi. Bu esa insonga o'zi a'zo bo'lgan jamiyat, partiya orqali tashqi voqelikka ijtimoiy ta'sir etish imkoniyatini ham yuzaga keltiradi. Rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik fikrini shakllantirishning umumiyligi (ommaviy axborot vositalari, televideniya, reklama, shou-dasturlar) va gorizontal (jamoat tashkilotlari, oila, norasmiy liderlar, korxonalar, partiyalar) yo'nalishlari amal qilib keladi. Ayni vaqtida ta'kidlash joizki, axborot xavfsizligini ta'minlash niqobi ostida axborot hurujini globallashtirishga intilishdan iborat shovinistik harakat ham avj oldirilmoqda. Masalan, jamoatchilik fikrini boshqarish deb nomlanuvchi (Public Relations) tizimi orqali Amerika Qo'shma Shtatlarida jamoatchilik fikrini maxsus shakllantirish borasida 200.000 kishidan ko'proq kishi doimiy faoliyat yuritib keladi. Birgina AQSh mudofaa vazirligi faoliyatini targ'ib etish bo'yicha 15.000 mutaxassis ishlaydi.

Xuddi shunday tizim Angliya, Frantsiya, Italiyada ham mavjud bo'lib, bu mamlakatlarda berilayotgan axborotlarning ta'siri, ularning aholining turli qatlamlari orasida ijtimoiylashuvu ko'lamlarini o'rganishga ixtisoslashgan sotsiolog-psixolog shtatlarini amal qilib keladi. Misol uchun, Reno zavodining Parijdagi ilmiy loyihalash va modellashtirish markazi (markazda 2,5 ming kishi faoliyat yuritadi) da 35 kishidan iborat sotsiolog va psixologlar guruhi doimiy ish olib boradi. Shunga o'xshash misollarni boshqa ko'plab yirik mamlakatlar axborot industriyasi ish tajribasi orqali ham ko'rsatish mumkin.

Axborot interventsiyasining bugungi mohiyati totalitar tuzum davridagi davlat va hukmron partiyaning direktiv ko'rsatmalarini aholi ongiga tazyiqiy singdirish uslubidan farq qiladi. Bugungi

kunda axborot tayziqi asosan, bilvositu uslublar orqali, ya'ni, san'at va madaniyat, din, sanoat mahsulotlari, ta'lim tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Axborot hurujlariga qarshi kurash jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanni rivojlantirishni taqozo etadi. O'zbekistonda istiqloq yillardining ilk davrlaridanoq jamoatchilik fikrini o'rghanish va ana shu real extiyojlar asosida xalqning ma'nnaviy sarchashmalari bulokini ochish, o'zligini namoyon etish imkoniyatlarini tiklash borasida muhim qadamlar qo'yildi. Birinchidan, ana shu ijtimoiy jarayonni ham nazariy ham amaliy o'rghanishga mutasaddi bo'lgan sotsiologiya sohasining ilmiy-pedagogik asoslari tarkib toptirildi.

O'nlab o'quv-uslubiy adabiyotlar, manografiyalar, ilmiy to'plamlar nashrдан chiqazildi. Ikkinchidan, sotsiologiya fanining ilmiy-nazariy potentsiali tarkib toptirildi. Hozirgi paytda Respublikamizda 3 ta sotsiologiya fanlari doktori va 6 ta fan nomzodi faoliyat yuritmoqda. Uchinchidan, jamiyatning turli tabaqalari orasida ijtimoiy fikrni o'rghanishga ixtisoslashgan professional nodavlat tashkilotlar tizimi shakllandi.

Birgina «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rghanish markazida o'tgan besh yil mobaynida 103 ta maxsus sotsiologik so'rovlari o'tkazilib 130 mingdan ziyodroq kishi tadqiqotlarga jalb etildi. Agar mamlakatimizdagi o'nlab ixtisoslashgan sotsiologik markazlar, tashkilotlarning mustaqil ravishda o'tkazuvchi so'rovlariaga yalpi jalb etilgan aholi soni taxmin etilsa, bu raqam bir necha yuz mingdan oshib ketadi.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini yoyish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash holatini umumiy baholaydigan bo'lsak, bu jarayon bugungi kunda o'zining faol shakllanish bosqichida ekanligiga amin bo'lamicha.

Xo'sh, shakllanish bosqichidan o'tish holatida qanday saboqlarga sotsiologiya fani o'z e'tiborini qaratishi lozim? Birinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlash ishlarining tizimiyl holatda emasligi, sotsiologik tadqiqot o'tkazish ishlaringin pirovard, yakuniy maqsadga qat'iy bo'ysundirilmaganligi ya'ni axborotga bo'lgan ijtimoiy extiyojlar negizida aniqlangan fikr-xulosalarning tegishli davlat va nodavlat tashkilotlarning amaliy harakat dasturlariga joriy etilmasligi, ikkinchidan, tadqiqotlarning etarli professional bilim va mahoratga ega bo'lmasdan o'tkazishning odatiy holga aylanganligi jiddiy muammollardan sanaladi. Misol uchun, mamlakatimizdagи jamoatchilik fikrini o'rghanishga ixtisoslashgan «Ijtimoiy fikr» markazidan boshqa biror bir sotsiologik tadqiqot o'tkazuvchi tashkilotda sotsiologiya fani bo'yicha ixtisoslashgan, mutaxassis sotsiolog olimlar ishlaraydi. Uchinchidan, o'tkazilgan so'rov natijalari turli axborot vositalari, radio va televideniya orqali xalqqa etkazilmasdan ommalashtirilmay kelinmoqda. Buning oqibatida esa jamoatchilik fikrini o'rghanish ishi ijtimoiy fikrni shakllantirishdan iborat pirovard maqsadga xizmat qilmay kelmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov jamoatchilik fikri omiliga jiddiy e'tibor qaratib, mazkur sohaning fuqarolik jamiyatini barpo etish va jamiyatni erkinlashtirish borasida katta imkoniyatlari mavjudligini bir necha bor ta'kidlaganliklari bejiz emas. Ayniqsa, jamoatchilik fikrini maqsadli

shakllantirish, aholi turli tabaqalari ongini ezzulik g'oyalari ruhida tarbiyalash, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq tamoyillarini ustuvor mavqelarga ko'tarishda sotsiologiyaning ahamiyatiga bejiz urg'u berilmadi.

Jamoatchilik fikri masalasida o'z qarashlarini ilgari surgan professor S.Jo'raev mazkur masalaning benihoya muhimligini chuqur asoslab beradi. («Xalq so'zi» 2002yil, 19- Oktyabr' soni) Ayni chog'da professor S.Jo'raev «jamoatchilik fikrini o'rganishni davlat darajasida tashkil etish» taklifini ilgari suradi-ki, bizningcha bundny yondoshuv biroz baxsli hisoblanadi. Negaki, oshkoraliq va demokratiya sharoitida jamoatchilik fikrini o'rganishni faqat davlat mas'ulligi doirasiga ko'chirilishi bu jarayonning erkinligini bo'lishi mumkin. Shu o'rinda davlatning o'mi qanday bo'ladi, degan haqli savol tug'ilishi tabiiydir. Davlat oshkoraliq va demokratiya sharoitida fuqaroviylar jamiyat erkinligini ta'minlash granti sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonlarda davlatning ishtiroki faqat tashkiliy-xuquqiy, texnikaviy, moddiy sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashish bilan chegaralanadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish ishlarini esa nodavlat jamoat tashkilotlari, partiyalar, ilmiy muassasalar, sotsiologik markazlar bevosita, to'g'ridan -to'g'ri amalga oshirib boradilar.

Xo'sh, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy fikmi maqsadli shakllantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash borasida qanday potentsiallarimiz mavjud? Hozirgi kunda Respublikamizda 507 ta gazeta va 157 ta jurnal ro'yxati olingan. Poytaxtimizda 5 ta telekanal 30 dan ortiq tahririyat orqali ko'rsatuvlari tayyorlanmoqda. Viloyatlarda 10 ta telestudiya faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizning butun xududlari radio tulqinlari bilan to'la qatnrab olingan. Yurtimizda 37 ta radio mahsulotlar tarqatuvchi markazlar kunu-tun ish olib bormoqda.

Ayni chog'da O'zbekiston o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida 300 mingdan ortiqroq o'qituvchi pedagoglar 300 mingdan ziyodroq injenerlar hamda olyi ma'lumotli qishloq xo'jalik mutaxassislaridan iborat ziyoilolar amniyati mavjuddir.

Shuningdek, mamlakatimizda 12 ming kishidan iborat olyi va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan madaniy-ma'rifiy soha xodimlari faoliyat yuritmoqdalar. Barcha viloyat va tuman hokimliklari qoshida «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari ishlab turibdi.

Xo'sh, ana shunday potentsialdan kanday foydalanimoqda. Taassufki, mazkur imkoniyatlardan foydalanish holati talab darajasida emas. Masalan, Respublikadagi 6 ming klub va madaniyat uylari, 17 ming kutubxona, 320 ta muzey, 120 ta madaniyat va istirohat bog'larida ishlovchi o'n minglab malakali ziyoililar jamoatchilik fikrini shakllantirishga faol xizmat qilishlari kerak edi. Madaniyat vazirligi tasarrufidagi mazkur tashkilotlar, hamisha ham tumanlardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari bilan baqamti, uyg'un xamkorlikda faoliyat yuritmayotilar. Shunday qilib jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ma'naviyat markazlarida mutaxassis kadrlar, sotsiologlar, bino, mablag' kam bo'lgani holda yuzlab tumanlardagi madaniyat uylari, klublar aholi ongida muntazam shakllantirilishi zarur bo'lgan ma'naviyat maxsulotni qaerden olishni bilmaydilar. Joylardagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati ommag'a faqat san'at janrlarini targ'ib etish, yoshlarni badiy havaskorlik ishlariiga jaib etish bilan cheklanib qolmoqda. Ma'lumki, klub muassasalarini, televidenie yoki gazetalardan farq qilib, konkret auditoriya, real aholi guruhlari o'rtasida bevosita ish olib borish imkoniyatlari egadir. Aslida ular aholi bilan jonli, yuzma-

yuz muloqotga kirishish, mulkurnaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ko'ra boshqa ijtimoiy ta'sir omillaridan ustunnoq mavqege egadirler. Bu birinchi muammo. Ikkinci katta muammo-bu o'rganilgan ijtimoiy voqelik, jumayonlar tug risidagi ijtimoiy fikrni operativ tarzda ommaviy axborot vositalari hamda televidenie orqali muntazam ravishida berib borilmasligidir.

Sotsiologik tadqiqotlar vositasida o'rganilgan jamoatchilik fikrining daxlsizligi masalasining nechog'li muhimligini teran anglash va uni qadriyat darajasida baholash xam muhimdir. Ma'lumki, televidenie yoki boshqa ommaviy axborot vositalari sotsiologik so'rov natijalaridan televidenie yoki gazeta manfaatlari yo'lidagina foydalanishga intiladilar. Jamiyatning xolis fikri sifatida sotsiologik so'rov natijalari minbarlari tashkil etilmagan. Uchinchи muammo jamoatchilik fikrini shakllantirishda milliy mentalitet omilidan etarli foydalanmay kelayotganmizdir. Ma'lumki, o'zbeklar tabiatan jamoaviy xalq bo'lishlariga qaramay liderning ibratiga, rahbarning, obro'-martabali shaxslaming namunasiga qarab ish qiluvchi xalq hisoblanadilar. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda joylardagi obro'-e'tiborli shaxslarga tayanish, ularning ruhlantiruvchi potentsialidan foydalanish imkoniyatiga etarli darajada e'tibor berilmay kelinmoqda. Yana bir muammo bu o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar auditoriyasidir. Sotsiologik kuzatuvlar shundan guvohlik beradiki, hozirgi paytda mahallalar, tumanlar va hatto ishlab chiqarish korxonalaridagi ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlangan majlislarda aksariyat doimiy katnashuvchi bir xil odamlar guruhi tarkib topib qolayotganligi ham e'tiborga olinishi zarur.

Jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadlarida quyidagilar taklif etiladi;

1. Mamlakatimizda jamoatchilik fikrini fakat o'rganuvchi emas, balki uni shakllantirish ishlari bilan ham bevosita shugullanuvchi oliy malakali kadrlar tayyorlash ishlarini qo'yish, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi sotsiologiya mutaxassisligini alohida ta'lim yo'nalishi sifatida joriy etish kerakdir.
2. «Iste'dod» jamg'armasi orqali Oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirishlari, xorijdagi ish tajribalami o'zlashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim.
3. O'zbekiston Fan va Texnologiyalar qo'mitasi ko'magida axborot xavfsizligini ta'minlash borasida jamoatchilik fikrini shakllantirish mavzuida mualliflar jamoasi ilmiy to'plamini tayyorlash va nashr ettirish maqsadga muvofiq bo'lib, mazkur ishga Fanlar Akademiyasidagi ijtimoiy fanlar sohasidagi etuk olimlar, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini jalb etish sohaning rivojiga xizmat qiladi.
4. Bugungi kunda mamlakatimizdagи axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi jamoatchilik fikri holatini ommaga etkazayotgan davriy nashrlarga barcha tashkilot va muassasalarni obuna qilishga erishish ham muhimdir.
5. Axborot xavfsizligini madaniyat va san'at sohalari orqali O'zbekistondagi minglab klublar faoliyatini joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari ishi bilan uygunlashtirish, yagona ma'muriy boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish kun tartibidagi masala hisoblanadi.
6. Ommaviy axborot vositalarida sotsiologik markazlar tomonidan o'rganilgan ijtimoiy fikr natijalarini operativ tarzda berib borish aniqrog'i tahririylar manfaatlariiga buysundirmaslik va ularning mazmunini yaxlitligicha, buzmasdan e'lon qilish, sotsiologik tadqiqotlar yakunlarining

dahlsizligi xususida shartnomalar imzolanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida doimiy e'lon qilib boriluvchi «Sotsiolog minbari» rubrikasini joriy etish zarur. Doimiy rubrika esa sotsiologik tadqiqot natijalarini muntazam ravishda ketma-ket berib borishni taqozo etadi. Bu sotsiologiyaga nisbatan real taklif bozorini yuzaga keltiradi. Fan va soha rivojiga keng yul ochiladi.

7. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun ommaviy axborot vositalarining yuqori va quyi bo'g'inlari reytingi monitoringini joriy etish va har uch oyda xolis sotsiologik markazlar ko'magida mazkur nashrlarning jamoatchilik fikridagi ijtimoiy mavqeい darajasini aniqlab borish xamda matbuotda ommalashtirish ham bugungi kun talablaridan hisoblanadi.

8. Arnaldagi sotsiologik markazlar faoliyatini sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, kasb mahoratlarini oshirish maqsadlarida, shuningdek yangi tuziluvchi sotsiologik markazlarining hayotda amal qilishi uchun doimiy faoliyat yurituvchi Sotsiologiya ilmiy-amaliy Markazini tuzish va ana shu Markazda attestatsiyadan o'tganidan so'ng ularga amaliy faoliyat uchun ruxsat litsenziyalarini olishlari maqsadga muvofiqdir.

9. Sotsiologik markazlar faoliyatlарини угуналаштириш мақсадларда ularнинг faoliyatlарини koordinatsiya qiluvchi "O'zbekiston Sotsiologlari" milliy assotsiatsiyani tuzishga ko'maklashish kerak.

10. Axborot va mafkuriyiy xurujlarga qarshi faoliyat yurituvchi tumanlar va viloyatlar va viloyatlar hokimliklarida ularning mavjud shtatlari ro'yxati doirasida sotsiolog shtatlarini joriy etishni amalga oshirish joizdir.

Axborot xavfsizligi masalasida jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlarida milliy mentalitetni o'zgarayotgan zamon mantig'iga muvofiq ravishda o'zgartirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Prezidentimizning «Tafakkur» jurnalida bosh muharririga bergen interv'yusida, hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati majlisida so'zlagan nutqlarida va boshqa chiqishlarida yosh avlod tabiatida shijoat, tashabbuskorlik, yangilikka intilish, g'ayratchanlik singari fazilatlarini shakllantirish xususida to'xtalgan edilar. Bu esa millat mentaliteti tarkibida mustaqillik, individual rivojlanishga erisha bilish xususiyatlarini rivojlantirishni ham tabiy ravishda taqozo edi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, mafkuriyiy ta'sirdan ogohlilik masalasida faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

Xullas, mamlakatimiz Prezidenti xalqimizni ozod va obod jamiyat barpo etish ishlariiga qat'iy azmu qaror, shijoat bilan kirishishga da'vat etmoqda. Buning uchun esa ko'pgina masalalar echimi o'zimizga bog'liq, ekanligini teran anglamog'imiz, eng shimarib, g'ayrat bilan ishga kirishmog'imiz lozim.

Tayanch iboralar:

1. Jamoatchilik fikri - uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni.
2. Jamoatchilik fikri - O'zbekistonda jamoatchilik fikrini yoyish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash holati.

Nazorat savollari:

1. Jamoatchilik fikrini o'rganish qanday ahamiyatga ega?
2. Mamlakatimizda ijtimoiy fikri maqsadli shakllanirish, axborot xavfsizligini ta'minlash borasida qanday potentsiallarimiz mavjud?
3. Hozirgi kunda Respublikamizda qancha gazeta va jurnal ro'yxatga olingan?
4. Yurtimizda qancha radio mahsulotlar tarqatuvchi markazlar ish olib bormoqda?

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, masakra», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild,
3. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil.
4. Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil.
5. Zapasnik M. Loj' v politike //Filosofskie nauki. 1991. №8, str.98.
6. «Polis» jurnali, Moskva, 1994 yil, 1-son, 42-bet.
7. Machiavelli H. Opere Scolte, 1973, R.8.

10-Mavzu: O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jamiyat axborot-psixologik xavfsizligining ta'minlanishi.

Reja:

1. Yangi axboriy texnologiyalar va zamonaviy jurnalistika.
2. O'zbekiston OAV va jamiyat psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari.

Yangi axboriy texnologiyalar va ayniqsa, internet jahon miqyosida yangi vaziyatni yuzaga keltirdi. Jurnalistika shaxs, jamiyat va davlat o'rtaсидagi sifat jihatdan yangilangan munosabatlar ufffff ko'proq ta'sir o'tkaza boshladi. Toronto universitetining professori Marshall Maklyuen tomonidan o'tgan asning 60-yillaridayloq obrazli tarzda ifodalangan «Global qishloq» tushunchasi reallikka aylanmoqda. Bugun butun insoniyat jamoa o'lchamigacha ixchamlashmoqda. Industrial jamiyat o'rniiga, ommaviy kommunikatsiyalar va axborotning roli beqiyos darajada oshgan axborot jamiyatiga qadam qo'ydi.

Kompyuter, uyali telefon, Internet millionlab odamlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bunday kommunikatsiya vositalari jurnalistning nafaqat doimiy yo'nalishiga, balki, uning asosiy mehnat quroliga, butun dunyo bilimlarini o'zida mujassam etgan maslahatchi, kutubxona va elektron entsiklopediyasiga aylandi.

Bugungi kunda kompyuter va uyali telefon jurnalistga uning qaerda bo'lishidan qat'iy nazar axborotni gazeta, jurnal yoki radio-televideniega sanoqli daqiqalarda etkazib berish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Darhaqiqat bugun yuqori texnologiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga tadbiq etish bmqiyosdir. Aynan yangi axboriy texnologiyalar tufayli jurnalistika bir qator transnatsional hodisaga aylangan. Yuqori texnologiyalar uni erkin qilib qo' ydi.

Ilgari u yoki bu tahririyat xodimi o'z auditoriyasiga murojaat qilishi uchun vaqt, OAV kanalining texnik imkoniyatlari va nihoyat o'z rahbariyati bilan hisoblashishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugun ana shu zanjirsiz amalga oshirishi mumkin. Ilgari kishilar u yoki bu kanal tomonidan taklif etilgan ko'rsatuvlar programmasi bilan cheklangan bo'lsa, bugun siz o'z ta'bingizga mos ravishda o'z dasturingizni tuzib olishingiz mumkin. Ya'ni, yangi infomatsion texnologiyalar nafaqat jurnalistga, balki auditoriyaga ham erkinlikni taqdim etdi.

Shu munosabat bilan ommaviy kommunikatsiyalar nazariysi sohasida taniqli mutaxassis, amerikalik olim Ulter Lippmannning fikrini eslash o'rinnlidir: «Siz materialni yozguningizcha erkinsiz, ammo siz uni mening qo'limga topshirishingiz bilan sizning erkinligingiz tugab, mening erkinligim boshlanadi. endi sizning qo'lyozmangizning taqdirini men hal etaman. Xohlasam - nashr etaman, xohlasam musor korzinasiiga tashlab yuboraman». Bu 1922 yilda aytilgan edi. Bu fikri bilan u o'z davri jurnalistining erkinlik chegaralarini ifodalab bergen edi. Albatta, jurnalist materialini boshqa tahririyatga berishi ham mumkin edi. Lekin har qanday vaziyatda ham jurnalist yuqori lavozimdagagi shaxsnинг pozitsiyasi bilan hisoblashmog'i kerak edi. Bugun bunday bog'liqlik yo'qqa chiqib bormoqda.

Yangi texnologiyalar bugungi kunda jurnalist va tahririyat imkohiyatlarini tenglashtirib boryapti. Shuning uchun ularni to'la ma'noda hamkorlar deb baholash mumkin. Bundan tashqari jurnalistika taraqqiyoti darajasi kichik gazeta yoki mahalliy radio va televidenie ijodiy xodimlarining imkoniyatlarini yiriklari bilan tenglashtirib qo' ydi.

Aynan shu va boshqa holatlardan jurnalist va jurnalistikaning jamiyatdagi o'mi va roli haqida yangicha, fikrlashni taqozo etmoqda. Bugun jurnalistika insoniyat taraqqiyotidagi vazifalarni hal etishdagini imkoniyatlarini tobora ko'proq namoyon etmoqda.

Sotsiologlarning ta'kidlashicha: «ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy axborot qancha ko'p to'plansa, jamiyatning shu sohadagi taraqqiyoti shuncha tezlashadi. Jurnalistika shu sohadagi axborotlarni to'plash, qayta ishslash, sistemalashtirish va tahlil etish bilan shug'ullanar ekan, xulosa qilish mumkinki, jurnalistika qanchalik yuqori sifatga ega bo'lsa, o'ziga yuklangan vazifalarni to'liq bajaradi, jamiyat rivojlanish tendentsiyalarini belgilaydi va uning rejalarini ishlab chiqadi.

Boshqa xarakterli tomoni shundaki, bugungi dunyoda turli yo'nalishdagi gazeta va jurnallarning miqdori salmoqli tarzda oshib bormoqda. XX asrning oxirlarida Maykl Konnif aytgan edi: «Amerika kundalik gazetalarining kuni bitdi, endilikda manzara butunlay o'zgardi». Gazetalar bugungi kunda elektron-axboriy inqilobning boshida turibdi.

Ular iste'molchilarga mahalliy telefon abonentlari foydalaniши mumkin bo'lgan - yangilik va tijoriy axborotlarni tavsiya etmoqdalar. Uy kompyuterlarida videotekstlardan, elektron axborotlardan foydalaniши imkoniyati yuzaga keldi.

Bugungi kunda an'anaviy davriy nashrlar bilan bir qatorda Onlayn jurnalistika samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Rivojlangan mamlikatlarda ijtimoiy fikrni shakllantirish belgilovchi ta'sir o'tkaza oladigan yuzlab elektron gazeta va jurnallar faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu tendentsiya bundan keyin ham kuchayib boradi. «Maykrosoft» tashkilotchisi Bill Geyts aytg'onidek, komp'yuter va Internet har bir kishi uchun imkon darajasida bo'ladi. Ya'ni bu texnikani olish darslik olishdan foydali va arzon bo'lib qoladi.

Davrimiz xususiyatlardan yana biri auditorianing biror muammo bo'yicha fikr-mulohaza va baholarni to'la yig'ish imkoniyati vujudga keldi. Shuning uchun kim tezroq va samaraliroq ishlasa, o'sha hodisalar yo`nalishini belgilay oladi va nazorat qiladi. Ikkinci tomonidan, qaysidir soha OAV nigohidan chetda qoladigan bo`lsa, paydo bo`lgan bo'shlinqning o'mini turli xil mish-mishlar, to'qimalar, kinoyalar to'ldiradi. Bunday mish-mishlar tarqatishlar bilan ham OAVlari shug'ullanishlari mumkin. Amaliyotda bunday bo'shlqlardan chet el OAV foydalanishga va bu bo'shlqn to'ldirishga harakat qiladi.

Shu bilan birgalikda, ta'kidlash kerakki, yangi axboriy texnologiyalar bizning hayotimizda ijobiy rolni o'ynashi bilan birgalikda, nomaqbul kimsalar va hattoki destruktiv xarakterdag'i davlat tuzilmalarining noplari niyatlarini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin. Matbuot qanday qilib odamlar ongiga egalik qilishi allaqachondan ma'lum, bu haqda ko'plab adabiyotlar ham mavjud. Keyingi bir qancha hodisalar ham bu haqda guvohlik berib turibdi.

Bir hodisa turli OAV tomonidan yoki turli jurnalist tomonidan turlicha talqin etilishi mumkin.

Internetning maxsus saytlari va portallarida davlat arboblari, taniqli shaxslar to'g'risida to'plangan turli xil pok va noplari ma'lumotlarni eslatib o'tish o'rinnlidir. Yuqoridagilar OAV jamiyat hayotida qanchalik muhim o'ringa ega ekanligi boshqaruv tizimlari va oddiy fuqarolar unga qanchalik umid qilishlari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. O'zbekiston ham bu jarayondan holi emas.

Mustaqillik e'lon qilinishi bilan jamiyat va davlat, matbuot, radio, telvidenie va axbot agentliklariga kata e'tibor qaratdi. Respublikada o'tgan asr 90-yillari boshlarida 200 atrofida davriy nashrlar mavjud bo'lsa, bugungi kunda ularning miqdori 1000ga etdi. Jumladan, 680 gazeta, 194-jurnal, 4-milliy teleradiokompaniya, 34-teleradiostudiya, 7- kabelli audiovizual OAV, 4-axboriy agentlik. Jurnalistikaga maxsulotlari tobora yuqori texnologiyalarga ega bo'lib bormoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan OAVni davlat va nodavlat OAVlari tashkil etadi.

 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida OAVlariga maxsus o'r'in ajratilgan. Ularning muvoffaqiyatli va to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun qonunchilik bazasi yaratilgan. Jurnalistikaning jamiyatdagi maqomini oshirish maqsadida davlat miqyosida bir qator takdbirlar amalga oshirilgan.

1996 yildan boshlab O'zbekiston jahon Internet tarmog'iga kirdi. 2006 yilga kelib bu butunjahon to'ridan foydalanuvchilar esa 1mln. 150 000 kishini tashkil etdi.

Bugungi kunda ko'plab ommaviy axborot kanallari Internetda o'z versiyalariga ega. elektron gazetalar paydo bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda bizning OAVlarimiz butunjahon jurnalistikasi tizimiga kirib bormoqda. Hozir nafaqat bizning auditoriyamiz chet el OAVlari bilan tanisha oladilar, balki chet el

auditoriyasi ham Internet orqali bizning gazeta va jurnallarimiz bilan tanisha oladilar. Ya'ni, bunday holat jamiyatimizni yanada yorqinroq va ochiqroq qilib bormoqda, endilikda chet el manfaatdor institutlari va doiralari bizdagi jarayonlar haqida o`zları xulosa chiqara oladilar va o`zları vaziyatni oldindan ko`ra oladilar, jamiyatimiz taraqqiyoti stsenariysini tuza oladilar.

Bularning hammasi O'zbekiston Respublikasi axborot kanallariga mas'uliyat yuklaydi. Tahririyat jamoalari OAV ta'sischilari hayotimizning og'riqli jihatlarini o`zları ko'tarib chiqmasalar, mavjud ziddiyatlarning hal etilishiga yordam berishga intilmasalar, buni birinchi galda «o'zgalar» amalga oshirishlari mumkinligini anglab etishlari kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, ular doim ham ezgu maqsadlar, bilan chiqavermaydilar.

Afsuski, bizning OAV larimiz auditoriyalari nihoyatda sust. To`g`ri, ular tahririyatga xatlar bilan murojaat qilib, o`zlarining quvonch va tashvishlari bilan o'rtoqlashadilar. Lekin uning imkoniyatlarini etarli darajada baholay olmaydilar. Kelib chiqadiki, matbuot o`z hayoti bilan, auditoriya o`z hayoti bilan yashamokda. Matbuot jamiyatni qadrlashga intilmas ekan, uni fikrashga undamas ekan, uning vijdoniga aylanishga harakat kilmas ekan, u hech qachon jamiyatning talabiga aylana olmaydi.

Matbuotimizning xarakterli xususiyati shundaki, ular bir xil yo`nalganligi, mazmunan bir xilligi va turli xil nomlanishiga qaramay bir tipdaligidadir. Matbuotimizni bugungi ahvoliga baho berib, u bilan u yoki bu tarzda aloqador bo`lgan kishi har bir jurnalning kamchiligi uning ichida, yuragida ichki tsenzuraning mavjudligidadir, deb ko`rsatadi. Jurnalistlarimizda qat`iylik, shijoatni kamroq ko`ramiz. Auditoriya nafaqat hayotimizning ijobjiy tomonlarini yoritayotgan, balki u yoki bu masaladagi xatoliklarni yoritayotgan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Oliy Majlis ikkala palatasining 2005 yil 28 yanvardagi qq'shma yig'ilishiha ta'kidlagan ediki, OAV yo`lida auditoriyalari, undan jamiyatni isloh qilish va yangilash yo`lida hokimiyat faoliyati va boshqaruva organlari faoliyatiga tanqidiy baholarni kutayotganlarini, dolzarb muammolarning mohirona tahlilini, to'siqlarni engib o'tish yo'llarini ko`rsatishlarini kutayotganlarini ta'kidlab o'tdi.

Tayanch iboralar:

1. Internet - axborot tarqatishning qulay vositasi sifatida.
2. Axborot texnologiyalari - texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga tadbiq etish jarayonlari.
3. Ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi - mohiyati va mazmuni.
4. Internet - maxsus saytlar va portallarda davlat arboblari, taniqli shaxslar to`g`risida to`plangan turli xil ma'lumotlar xolisona ilmiy tahlil qilish.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida OAVlariga qanday munosabat bildirilgan?
2. O'zbekiston qachon jahon Internet tarmog`iga kirdi?
3. Matbuotimizning bugungi ahvoliga qanday baho berasiz?
4. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'mni nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati:

15. Karimov I.A «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil
16. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 2-jild,
17. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil
18. Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil
19. Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-son
20. Karimov I.A. «Olloh qalbimizda, yuragimizda» Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.
21. Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka-ishonchdir»: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000 yil.
22. Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
23. «Iqtisodiy va informatsion havfsizlik zamonaviy muammolari» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to'plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma'sul M.M.Baxadirov.T..JIDU,2006.-137b.

O'zbekiston saytlari:

- WWWpress-service.uz - press-slubju Prezidenta Respublikii Uzbekistana;
- WWW. Gov uz- Intkrnet-portal kabineta ministrov Respublikii Uzbekistana;
- WWW.izes uz - veb-sayt Instituta strategicheskix i mejregional'nix issledovanij pri Prezidente Respublikii Uzbekisten;
- WWW. Edu uz - veb-sayt Instituta izuchenija grajdaeskogo obshestva;
- WWW. Ziyonet uz - Internet-skt' «Ziyonet»;
- WWW. myp uz - Natsional'niy molodejnyi portal;

**«Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik» fanidan
Amaliy mashg`ulotlarning mavzu va rejalar**

**I-mavzu: Kursning predmeti va vazifalari
Reja**

1. Axborot-psixologik xavfsizlik fanning va ijtimoiy amaliyotning mustaqil va muhim yo`nalishi sifatida.
2. Fanning vazifalari
3. O`quv kursining asosiy tushunchalari
4. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta`minlashning asosiy yo`nalishlari va usullari

**2-mavzu: Axborot sohasining globallashuvi
Reja**

1. Globallashuv – XXI asr jahon hamjamiyati ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy xususiyati
2. Jahon axboriy makoni: uning geosiyosiy kurash maydoniga aylanish xavfi
3. Globallashuv va milliy xavfsizlik
4. Ommaviy axborot vositalarining hozirgi davrdagi tizimi

**3-mavzu: Shaxs, jamiyat va davlatning axboriy-psixologik xavfsizligiga tahdidlarning turlari va manbalari
Reja**

1. Axboriy tahdid turlari
2. Axborot-psixologik xavfsizlik vositasi sifatida
3. Jamiyat axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid turlari
4. Shaxsga axborot-psixologik tahdid o`tkazish usul va vositalari

**4-Mavzu: Axboriy kurash va OAV
Reja**

1. Jahonda axboriy muvozanatning o`zgarishi
2. OAV AP urush olib borish vositasi sifatida
3. Axboriy urushning tarkibi
4. Chet el OAVning ongiga ta`sir o`tkazish usllari va vositalari

5-Mavzu: Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta`minlash tizimining mohiyati va unsurlari.

Reja:

1. O`zbekistonning jahon axboriy muhitiga kirib borishi
2. Axboriy muhitda O`zbekistonning muhim umummilliy manfaatlari
3. Axboriy muhitda milliy dasturlarni ta`minlash tizimi unsurlari

6-Mavzu: Axborot-psixologik xavfsizlikni ta`minlashning vazifalari, asosiy faoliyat yo`nalishlari va uslublari.

Reja

1. Shaxs, jamiyat va davlatning APXni ta`minlash vazifalari
2. Shaxs, jamiyat va davlatning APXni ta`minlashning siyosiy-huquqiy jihatlari

3.Konstitutsion tuzum himoyasi, fuqarolar salomatligi va axlohiy munosabatlarni mustahkamlash APXning zaruriy sharti sifatida

4.APXni ta'minlashning tushkiliy-teknik pihatlari

7-mavzu: Ochiq ommaviy axborot tuzimi sharoitida shaxsning psixologik o'zini o'zi himoyalash

Reja

- 1.Shaxs ruhiy kechinmalarining ijtimoiy borliq qadriyatlarga bog'liqligi
- 2.Mafkura va psixologik xavfsizlik muammolari
- 3.Ochiq axborot kommunikatsiya tizimida insонning axborot tahidlarini baholash va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari
- 4.Turli axborot-psihologik vaziyatlarda shahsning ijtimoiy hulqi
- 5.Shaxsning ma`naviy-axloqiy takomili va o'zini o'zi himoya qilish va boshqarish imkoniyatlari

8-mavzu: Ommaviy-axborot vositalari va jamiyat axborot psixologik xavfsizlikni ta'minlash

Reja

- 1.O'zbekiston axborot xavfsizligiga nisbatan tahdid turlari
- 2.O'zbekiston ommaviy-axborot vositalari tuzilishi va tizim
- 3.Chet el ommaviy-axborot kommunikatsiyalari ta'siri jarayonida barqaror psixologik muvozanatni saqlash yo'llari va vositalari.
- 4.Davlat siyosatini axboriy ta'minlash va aholiga singdirish muammolari.

